


Gulrux XUDOYOROVA



Shavkat RAHMON

lirikasida ijtimoiy
ohanglar



SAHHOF
2025

821.512.133-32
84(50')
M 90

X 90 Xudoyorova, Gulrux.
Shavkat Rahmon lirikasida ijtimoiy ohanglar [Matn]:
monografiya / G. Xudoyorova.
– Toshkent: SAHHOF, 2025. – 96 b.

ISBN 978-9943-7719-5-6

UO'K 821.512.133-32
KBK 84(50')

Mas'ul muharrir:
Nurboy JABBOROV
filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:
Shermuhhammad Amonov – *filologiya fanlari doktori*
Adiba Davlatova – *filologiya fanlari doktori*

Gulrux Xudoyorova shoira bo'lishi barobarida, adabiyotshunos olimi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktoridir. Ushbu monografiyasida Shavkat Rahmon she'riyati o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega ekani, shoir lirikasi adabiyotimizga keskinlik va shiddatga asoslangan turkiy ohangni olib kirgani isbotlangan. Kitobda shoirning "Abadiyat oralab" to'plamidagi she'rlar ijodkor umri davomida yaratilgan eng nodir lirik kechinmalarini o'zida aks ettirishi barobarida, shakliy novatorlikka ham yorqin misol bo'la olishi asoslangan. Shavkat Rahmonning ijtimoiy xarakterga ega she'rlari jahon adiblari ijodidagi umumbashariy mavzular bilan hamohang ekani haqidagi qarashlar chuqur ilmiy mantiqqa ega ekani jihatidan qimmatlidir. Shoir she'rlari folklor motivlari bilan uyg'un ekani dalillanib, ulardagi obrazlarning badiiy vazifasi Garsia Lorka, Pablo Neruda, Yevgeniy Yevtushenko, Musa Jalil kabi jahon shoirlari lirikasi bilan qiyosiy aspektda tahlil qilingan. Muallif xulosalari shoir she'rlarining falsafiy-estetik qimmatini xolis baholanganini bilan ahamiyatlidir.

Monografiya adabiyotshunos mutaxassislar, tadqiqotchilar va keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

ISBN 978-9943-7719-5-6

© Gulrux XUDOYOROVA, 2025
© SAHHOF, 2025

KIRISH

Inson o'zligini anglashi bilanoq, uning hayotidagi zaruriy ehtiyojlardan biri estetik tamoyilga intilish bo'ladi. XXI asr – texnikaviy taraqqiyot rivojlanayotgan bir davrda insonlardagi estetik tamoyilni shakllantirish, saqlab qolish nihoyatda dolzarb masala hisoblanadi. Ana shunday ulkan vazifa bugungi kunda adabiyotning yelkasida turibdi desak, hech mubolag'a bo'lmaydi. Zero, barcha davrlarda xalqning orzu umidlari, saviyasi, madaniyati adabiyotda o'z aksini topgan. Hech bir qudrat adabiyotchilik inson kechinmalarini o'ziga singdirolmaydi va kechinmalarini yetkazib berolmaydi.

XX asr oxiri XXI asr boshidagi o'zbek adabiyoti, jumladan, she'riyati turli xil tuzumdagi jamiyatning ijtimoiy, maishiy, madaniy hayoti zaminida tug'ilgan, xilma-xil mohiyat va shaklga ega g'oyat murakkab bir hodisaki, uni chuqur tadqiq etib, ilmiy bahosini berish, shu asosda adabiyot nazariyasiga taalluqli yangi natijalarni qo'lga kiritish hamisha ham muhim vazifalardan hisoblanadi. Adabiyotning insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarni esa inson ruhining muhandislari deb ta'riflanishi bejiz emas, albatta.

Chindan-da, shoirlar inson ruhining muhandislari. Ular inson O'z qalbining eng nozik kechinmalarini aniq ko'ra oladilar. Fikrlariga, tuyg'ulariga o'zgalarni ham sherik qilish qobiliyatiga egadirlar. Ulardagi eng muhim jihat ham ana shu. Insonlar ularga ergashadilar, ular ulug'lagan estetik tamoyillarga talpinadilar. Shoir Vatan haqida yozsa, uni

o'quvchilar qalblarida Vatan mehrini his etadilar, shoir poklik haqida yozsa, uni o'quvchilar o'zlari-ning ruhiy pokligini taftish qiladilar, shoir haqiqatni, mardlikni kuylasa, xalq ham tuyg'ularni kuylaydi, qadrlaydi. Buning uchun o'zi qalban pok, ruhan ana shu esa qalam egasining barkamol bo'lmog'i, o'zi ulug'layotgan tushunchalarni eng avvalo, o'zi qadrlamog'i joiz. Shavkat Rahmon aynan shu qiyo-fadagi shoir edi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, insonlar qalbi-dagi estetik tamoyilning shakllanishi va rivojla-nishida she'riyatning, xususan, Shavkat Rahmon ijodining o'rni beqiyos. Shu bois Shavkat Rahmon ijodini o'rganish, uni ommalashtirish nafaqat ada-biyotga, balki butun jamiyatga tegishli masaladir.

I BOB

SHAVKAT RAHMON LIRIKASIDA IJTIMOIYLIKNING RAMZIY IFODALANISHI

She'r bu shoir qalbidan kechgan kechinmalar ifodasi. Shu bois unda shoir o'y fikri, ovozi mavjud. Shoirning ovozi qay tariqa jaranglashi esa u yasha-yotgan jamiyatga bog'liq. Chunki inson jamiyatdan ayro holda inson sifatida shakllanmaganidek, uning tuyg'ulari ham eng avvalo, o'zi yashayotgan jami-yatda ro'y berayotgan voqea, hodisalar asnosida shakllanadi. Demakki, shoir yaratgan ijod namuna-sida jamiyatdagi holat – ijtimoiy muhit qay ma'no-dadir jo bo'ladi. Albatta, shoir she'riyatini ijtimoiy muhit bilangina chegaralab qo'yish xato, ammo ja-miyatdan butunlay uzib olish ham yaramaydi.

XX asrda inson juda ko'p voqealarni, evrilish-larni boshidan o'tkazdi, ozmas ko'pmas, naqd uch-ta ijtimoiy tuzumni ko'rdi va bularning bari adabi-yotimizda qaysidir ma'noda aks etdi. Jamiyatning ijtimoiy siyosiy hayotidagi burilish va o'zgarishlar gohida adabiyotimizning bosh mavzusini belgila-di. Ba'zan esa ijodkor, ayniqsa, ijodkor shoir har qanday ijtimoiy – dolzarb muammolarni bir chet-ga ta'biri bilan yig'ishtirib qo'ydi, ispan faylasufi Xose Ortega i-Gasset "ko'z va o'z qorachig'ini ich-kariga qaratdi" deb aytganda, ko'ngil dunyosining kashfiga berildi. Bularning hammasi XX asrda ro'y berdi va ular shu davr adabiyoti, xususan, she'ri-yatining g'oyaviy-tematik darajasini belgiladi.

She'riyat darajasini ko'pincha va asosan, u yozilgan davr, davrning ijtimoiy-siyosiy-psixologik muhiti belgilab beradi. Ko'rinadiki, har qanday san'at ma'noda ijtimoiy muhitning ham mahsuli. Biroq, o'rtada shaxs, shaxs – shoir mavjudligini ham yodda tutmoq lozim. Shuni ham unutmaslik kerakki, shaxs davrdan olib, davrga beradi. Bundan ko'rinadiki, shoir avvalo, davr va she'r o'rtasidadir. Davrning ruhi she'rda qanday va qay darajada aks etishi o'rtada turgan shaxsga, uning salohiyatiga bog'liq. Shoir she'rining ijtimoiylashuvida ikki holat mavjud. Birinchi holatda, shoir she'ri butunlay ijtimoiy muhit "asiri"ga aylanadi va o'zining badiiy tamoyilidan chetlashadi. Bunday she'r faqat madhiya bozlikdan iborat bo'lib qoladi va asl maqsadini yo'qotadi. Bu tarzda yaratilgan ijod namunasi-ning umri qisqa. Buni tarix juda ko'p bora isbotlagani barchamizga ravshan. Ikkinchi holatda ham, shoir ijtimoiy muhitdan ta'sirlanadi. Ammo hech qachon ijtimoiy muhit maddohiga aylanmaydi. Buning uchun shoirida toza qalb, Xudo yuqtirgan iste'dod va haqiqatni kuylashga qodir OVOZ kerak. Bu kabi shoirlar o'zi ulug'lagan tuyg'ularni mardona kuylaydi, himoya qiladi. Shavkat Rahmon shunday ijodkorlar sirasidan. U haqiqiy shoir "jasorat so'zining tarjimoni" bo'lishi kerak, deb hisoblaydi.

*Endi jim turasiz
og'ir, bilaman,
ammo har kimsaga taqdir nasibdir,
bilmoqchi bo'lsangiz agar, shoirlik
jasorat so'zining tarjimasidir.*

Shavkat Rahmon o'z tuyg'ularini yetkazishda ramzlar tizimidan nihoyatda samarali va mohirona foydalanadi. Ayniqsa, Vatan haqidagi she'rlarida bu holat yaqqol ko'zga tashlanadi. Shoir ijodiga nazar tashlaydigan bo'lsak, unda juda ko'plab ilatlarga – loqaydlik, ikkiyuzlamachilik, qo'rqqoqlik, yolg'onchilikka kuchli nafrat borligini ko'rishimiz mumkin. U bu kabi tuyg'ularini goh ochiq, goh ramzlar vositasida bayon etadi.

*Bu go'l yerdir,
dangasa emas,
Go'l bo'lsayam yerlarning zo'ri,
kuzni kuz-u, qishni qish demas,
Ko'zlarini bo'lmaydi ko'rib.
Ya'ni, ishdan ko'tarmaydi bosh,
berar ipak, qorako'l, paxta,
oltin, kumush, yana marmartosh
tag'in haqin so'ramas xarday.*

Go'l yer bu – sodda, andishani har narsadan ustun qo'yuvchi o'zbek xalqi. Uning o'z yeriga muhabbati cheksiz, o'zbek xalqidek mehnatsevar xalq kam. Ammo Sovet davrida o'zbeklarning ana shu fe'l-atvoridan yuzsizlarcha foydalanilgani hech kimga sir emas. O'zbek xalqining bebafo boyliklari tashib ketilgani, xalqning mehnati suiiste'mol qilingani shoir g'azabini uyg'otadi. Zero, uning uchun bu xalq muqaddas, ulug'. Boisi, bu xalq "go'l bo'lsayam yerlarning zo'ri". Shoir nohaqlikni, zulmni shunchaki yutib ketmaydi. Uning ruhiyatida xalq uchun, yurt uchun, haqiqat uchun kurashmoq hissi ustun. Shu bois u loqayd,

el-yurt taqdiri bilan ishi yo'q kimsalarni ayab o'tirmaydi.

*Lazzat bor har qanday og'riqda,
Kechalar og'riqdan ingrab yotaman.
Va o'sha og'riqni beg'am, bo'g'riqqan
Og'riqsiz yuzlarga otaman.*

Og'riqsiz yuzlar bu – el-yurt g'amidan ayro, loqayd kishilar. Shoir ularni qiyin bo'lsa-da, haqiqatni kuylab, Vatan, Xalq g'amida yashashga undaydi. Zero, haqiqatga, hurlikka eltuvchi yo'l hamisha qiyin, zalvorli, ammo yagona haq va sharaflı yo'ldir.

*...Mana, begonalar
beparvolar yo'q,
nihoyat odamlar birodar – tengdir.
O'limga bosh egdim
qo'rqqanimdanmas,
hurmat qilganimdan boshimni egdim.*

Agar hamma birlashsa, ahil bo'lsagina, beparvolik degan kasallik insonlarni tark etsagina, Shavkat Rahmon o'limni tan oladi. Aks holda, uning isyoni to'xtamaydi, o'limga osongina taslim bo'lmaydi:

*Eng baxtiyor lahzalarda ham
Uning sokin isyoni so'nmas.
Tug'ilmagan shunchaki aslo,
U hech qachon shunchaki o'lmas.*

1980-yilda yozilgan bir she'rida Shavkat Rahmon yillar qa'ridan toshbo'ron va qirg'inlarga

yo'liqib kelayotgan minora qismatidan hikoya qiladi. Va aytadiki, to'plar o'qidan minoraning bosh qismi uchib ketgan bo'lsa-da, joni sharqona bezaklar bitilgan qismida omon qolgan hamda har yili unga laylaklar in quradi. Shoir bu she'rni quyidagicha yakunlaydi:

*Bu yil ham minorda xayriyat,
Sharqona bezaklar so'nabdi.
Minorning boshiga bu yil ham
Xayriyat, qarg'alar qo'nabdi.*

Adabiyotdan, umuman, san'atdan xabardor kishi borki, ushbu she'r majoziy bo'lib, u o'z tagqatlamlarida o'zga ma'nolarni ham yashirib turganini ortiqcha qiyinchiliksiz tushuna oladi. Ta'bir joiz bo'lsa, she'rda aks etgan minorani xalq, uning so'nmagan sharqona bezaklarini hali yo'qotilmagan millat qiyofasi, qarg'alarning minora boshiga qo'nmagani ozod kelajakka bo'lgan umidning o'laroq, qabul qilsa bo'ladi. Bunday ramziy she'rni bugun yozish va uni talqin etish shoirdan ham, munaqqiddan ham ortiqcha qahramonlikni talab qilmaydi. Biroq, yigirma yil avval – 1980-yilda, ya'ni Sobiq sho'ro davrida bu kabi misralarni yozish, undan-da muhimrog'i, she'rda aks etgan ma'noni anglash darajasiga ko'tarilish oson ish emas edi.

Shavkat Rahmon lirikasidagi ijtimoiylikning ramziy timsollari yetakchiligidan kelib chiqqan holda, Ulug'bek Hamdam shunday yozadi: "Shavkat Rahmon shaxslik maqomidagi shoir edi, shaxs shoir edi. Bunday shoirlarning esa qismati tomo-

nidan zimmasiga yuklangan o'z vazifasi bo'ladi. Bunday vazifa shaxsning subyektiv dunyosi bilan chambarchas bog'lanib ketganiga ko'ra, shoir ana shu botindagini dunyoga tatbiq qilmoqqa urinadi. Yoki hech bo'lmasa o'zini, o'z turmushini botinning izmiga solaman, deydi. Bunda u tashqi muhitning temir qoidalari qarshisida titrab – qaqshamaydi, yoki undan nusxa ko'chirmaydi, unga taqlid qilmaydi, ergashmaydi. Chunki shaxsning o'z axloqi bor, ana shu chegaradan boshiga o'lim kelsin, chetga chiqmaydi. Izchillik bilan vazifani ado etishda to o'limgacha davom qilaveradi"¹.

Shavkat Rahmon "Qaysar bulbul" she'rida chor hukumatida avj olgan fisq-u fasodni zog', bulbul kabi ramziy vositalar yordamida nihoyatda jonli yoritib beradi:

*Zog'lar orasida bulbulni ko'rdim,
Besh-o'n qo'tir zag'cha boshin cho'qigan,
Yuragi yorilib o'lsin deb sho'rlik,
Bulbul haqida ko'p ig'vo to'qilgan.*

Shu o'rinda ko'z o'ngimizda Cho'lpon, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy, Fitrat kabi ajdodlar qiyofasi paydo bo'lishi tabiiy. Zero, bu shaxslarga qo'yilgan ayblar, ular uchragan tuhmatlar hech kimga sir emas. Bu kabi soxta fisq-u fujurlar ular hayotligida ham, undan keyin ham mavjud bo'lgan bo'lsa-da, ammo Abdulla Qodiriyning: "Men haqiqat yo'lida boshi ketsa, "ix" deydurg'on yigitlardan ermasman", degan so'zlari ham borki, aslo

¹ Hamdamov U. Shoir – tuzalmas haqiqatparast. // Badiiy tafakkur tadriji kitobidan. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002. –B.109.

unutib bo'lmaydi. Shoir bulbulga qo'yilgan yana bir aybni yozadi:

*Tag'in bir aybi bor,
o'qirmish namoz.
Islom bayrog'iga qilarmish sajda,
har qanday jazoni bersangiz ham oz,
hammani qon qilib bo'ldi bu ajdar.
Ig'volar yozilur,
besh-o'n qo'tir zog'
yangi arslonshohga tinmay xat tashir.
Shotirlar ishidan yurar kayfi chog'
qora ko'zoynakni taqqan kattasi.*

Mustamlaka davrida qanchalab kishilar namoz o'qigani uchun qurbon bo'ldi. Bu jarayonda shoir ta'kidlagan "shotirlarning" – zog'larning "xizmatlari ulkan", albatta. She'r o'z o'zidan insonni moziyga nazar tashlashga majbur qiladi. Qalbda anglab bo'lmas qiynoq uyg'onadi. Shu o'rinda, shoirning ulkan iste'dodi bilan bir qatorda, o'zi ta'kidlaganidek, "jasorat so'zining tarjimoni" ekanligi namoyon bo'ladi va shoirning o'zi aytgan quyidagi so'zlari xayolimizdan o'tadi: "Bashar fojiasini, millat fojiasini o'z fojiasi bilib o'rtangan shoir haqiqiy she'r baxtiga muyassar bo'ladi. She'r yozish o'lim bilan yuzmayuz turib gaplashgan bilan barobardir".

*Ko'zingizni oching, qo'rqmang,
Ziyodan qamashsin, og'risin, mayli,
Mayliga, yashamak bo'lsin qiyinroq
ochiqligi tufayli,*

deb yozadi 1975-yilda, endi-endi katta turmushga kirib kelayotgan 24 yoshli shoir. Va u umrining oxiriga dovur ana shunday – haqiqatni aytib, unga intilib, ochiq koʻzlar bilan yashash oʻgitiga sodiq qoladi. Va mana shu ochiq koʻzlar – haqiqatni koʻrishga boʻlgan betiyiq ehtiyoj shoirga koʻrsatdiki, u yashayotgan mamlakat azim bir yolgʻonning changalida qolgan, atrofda esa vabo, boʻhton va hirsga mukkasidan ketgan odamlar toʻlib-toshgan ekan... Shunda ochiq koʻzlar yana bir narsani gʻira-shira ilgʻadi: shoir mansub boʻlgan millat arosatda, yurt, Vatan istilo qilingan edi. Bu zulmdan qutulmoqning yagona yoʻli – koʻzlarni kattaroq ochmoqda qoldi. Axir, Vatan sari faqat ochiq koʻz bilan boriladi. Vatanni faqat koʻzi ochiqlargina taniydi. Chinakam vatanparvar koʻzini yirikroq ochadi, mayli, ochiqligi tufayli yashashi qiyinroq boʻlsin, mayliga, koʻzlari qamashsin va yo ogʻrisin.

Ijodiy matnda ijtimoiy voqelikni ramziy vositalar orqali ifodalash zamonaviy adabiy tahlilning markaziy yoʻnalishlaridan biridir. Lirik ramzlar insonning ichki dunyosi va jamiyatning murakkab ijtimoiy tizimi oʻrtasida koʻprik vazifasini bajaradi. Shu jihatdan shoirning subyektiv tajribasi va ijtimoiy haqiqat bir-birini toʻldiradi. Tadqiqotlarda ramzning ijtimoiy funksiyasi ikki asosiy yoʻnalishda koʻriladi: birinchisi, subyektiv hissiyotlarni ifodalash, ikkinchisi – ularni keng ijtimoiy kontekstda talqin qilish. Shu bois, Shavkat Rahmon lirikasidagi ramzlar, asosan, insoniyat, millat, ozodlik va haqiqat kabi umumiy ijtimoiy mavzularni aks ettiruvchi vositalar sifatida oʻrganiladi. Shavkat Rahmon sheʼriyatida ijtimoiy mavzular koʻpincha

oddiy hayotiy hodisalardan ustun ramziy qatmlar orqali ochiladi, bu esa uning lirik dunyosiga murakkab falsafiy maʼno bagʻishlaydi. Masalan, Shavkat Rahmonning sheʼrlari tabiat hodisalari va kundalik hayotiy detal orqali ijtimoiy haqiqatni talqin qiladi. Bu obrazlar shoirning milliy ong va shaxsiy iztiroblarini uygʻunlashtiradi. Tadqiqotchilar taʼkidlaydiki, “Shavkat Rahmon lirikasida ijtimoiy motivlar koʻpincha shaxsiy kechinmalar bilan uzviy bogʻlangan”¹. Shavkat Rahmon lirikasida ramzlar koʻp qatlamli semantik funksiyani bajaradi. Ramzlar shoirga nafaqat ichki hissiyotlarini, balki ijtimoiy real voqelikni ham talqin qilish imkonini beradi. “Shoir sheʼrlarida ozodlik, inson qadr-qimmat, haqiqat izlanishi kabi mavzular ramziy vositalar orqali aks etadi”². Masalan, tabiat hodisalari – togʻlar, daryolar, yomgʻir – koʻpincha insoniy kurash va milliy ruhni ifodalovchi simvol sifatida ishlatiladi. Bu borada tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, togʻ tasviri nafaqat estetik obyekt, balki ruhiy mustahkamlik va qarorli irodani ifodalaydigan ramziy vosita hisoblanadi. Shavkat Rahmon sheʼrlari insonning vijdoni, haqiqat izlanishi hamda ozodlikka intilish kabi ijtimoiy-etik qadriyatlarini ifodalash bilan ajralib turadi. Bu ifodalar ramzlar orqali shoirning subyektiv hissiyotlari bilan ijtimoiy real voqelikni bogʻlaydi. Shoirning “Yurakdan chiqqan ovoz” sheʼri misolida, insoniy iztiroblar va jamiyatdagi adolatsizlik ramziy obrazlar

¹ Jonuzoq N. Milliy va ijtimoiy motivlar Sh. Rahmon lirikasida. –Toshkent. F.f.d.diss.. 2019. –B. 78

² Sultonov X. Ramz va metafora oʻzbek lirik sheʼriyatida. –Toshkent. 2016. –B.34

orqali aks etadi. Yurak ramzi shaxsiy hissiyotlarni ifodalaydi, daryo va tog'lar esa ijtimoiy qatlamni talqin qiladi. Tadqiqotlarda shoirning bu uslubi ijtimoiy mavzularni estetik qatlam orqali yetkazish strategiyasi sifatida baholanadi. Lirik matnda ramz tuzilishi ijtimoiy voqelikni talqin etishda markaziy rol o'ynaydi. Rahmon she'riyatida ramzlar odatda ikki darajali: birinchisi – subyektiv hissiyotlar, ikkinchisi – ularning jamiyat bilan bog'liqligi. Masalan, shoirning “Tong otganda” she'rida quyosh ramzi yangi imkoniyatlar, yuksak maqsadlar va jamiyatdagi umid timsoli sifatida ishlatiladi. Shu bilan birga, tunda qolgan qorong'ilik inson ichki kurashini va jamiyatdagi qiyinchiliklarni aks ettiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday ramzlar ijtimoiy haqiqatni she'riy metaforalar orqali talqin qilishga xizmat qiladi. Uning she'riyatida metafora va o'xshatishlar ramzning markaziy tarkibiy elementlari sifatida ishlatiladi. Bu badiiy vositalar ijtimoiy mazmunni estetik platformada aks ettiradi. Masalan, yomg'ir tasviri inson kechinmalarini va jamiyatdagi adolatsizlikni ramziy tarzda ifodalaydi. Shu bilan birga, quyosh va tog' ramzlari shaxsiy kuch, qaror va ijtimoiy mustahkamlikni anglatadi. Tadqiqotlarda shoirning bunday metaforik strategiyasi lirik qahramon va jamiyat o'rtasidagi murakkab aloqani ko'rsatadi.

“Muallif lirikasida lirik qahramon ko'pincha jamiyat bilan bog'langan shaxs sifatida tasvirlanadi. Lirik qahramonning ichki iztiroblari va milliy qadriyatlar ramziy tarzda ifodalanadi”¹. Masalan,

¹ Abdullayev K. Lirik qahramon va ijtimoiy fazilatlar. – Toshkent. F.f.f.d.diss. 2019. – B. 48

shoirning “O'tmishga qarab” she'rida qahramonning xotirjamligi va qarorli irodasi milliy va ijtimoiy kontekst bilan uyg'unlashadi. Bu yondashuv she'riyat orqali jamiyatning umumiy ijtimoiy-psixologik holatini aks ettirishga imkon beradi.

Shavkat Rahmon lirikasida ijtimoiy motivlar va falsafiy yondashuv uzviy bog'liq. Ramzlar va metaforik tuzilmalar ijtimoiy voqelikni subyektiv kechinmalar bilan uyg'unlashtiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, shoir she'riyatidagi tabiat tasvirlari va insoniy obrazlar ijtimoiy haqiqatni estetik qatlam orqali yoritadi. Shavkat Rahmon lirikasida ijtimoiylik ramziy qatlamlar orqali chuqur estetik va falsafiy ifodalanadi. Ramzlar va metaforik strukturaviy elementlar shoirga insoniy kechinmalarni jamiyat bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Shu orqali Rahmon she'riyatida shaxsiy va ijtimoiy qatlamlar uzviy birlashadi. Bunday yondashuv shoir lirikasining faqat shaxsiy hissiyotlarni ifodalash emas, balki jamiyatning murakkab ijtimoiy-axloqiy holatini poetik ramzlar orqali yoritish vazifasini ham bajarayotganini ko'rsatadi. Natijada, Rahmon lirikasidagi ramzchilik va ijtimoiy mazmun zamonaviy o'zbek adabiyotida o'rganishga loyiq noyob hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Shavkat Rahmon ijodini chuqurroq tahlil qilsak, yuzakilik haqni so'ylashda, Vatanni sevishda, insonga mehrda, tarixni tushunishda, hatto, she'riy timsollarda ham yuzakilik Shoirning birinchi raqamli dushmanidir. Ijodkorning she'rlarini tahlil qilar ekanmiz, uning fitratan o'ychan, bosiq bo'lganiga, shu bois tuyg'ulari ichga qarab o'sganiga

guvoh bo'lamiz. Hatto isyoni ham sokinlashtiradigan darajada ich-ichga qarab yuksalgan. Masalan, "Fikr" she'rida shoir o'zini tinchoqar daryoga o'xshatadi.

*Daryoga aylandim
o'ychan daryoga,
ruhimda qadimgi osoyishtalik.
Qa'rimga berkitdim dolg'alarimni,
ruhimga bo'ysundi dunyo ishlari.*

Daryo dolg'asiz bo'ladimi?! Yo'q, bo'lmaydi. Ammo Shavkat Rahmon sharqiroq, yengiltak soy emas, dolg'alarini qa'riga chuqurliklariga berkitgan bosiq, og'ir, o'ychan daryodir. "Ruhida qadimgi osoyishtalik"ni saqlagan bunday o'ychan daryo bir dolg'alanmasin. Sokinlik bag'ridagi dolg'a agar yuzaga chiqsa, nimalar yuz berishi hayotda ko'p ko'rilgan.

Yana bir she'rida "Umrim ko'chkilarday jimjit, shiddatli" deb yozadi shoir. Shiddatini qa'riga yashirgan jimjit ko'chkiga qiyoslaydi ijodkor o'zini. Uning shiddati jimjitligida. To'g'rirog'i, jimjitlikning tub tubida shiddat yashirin.

*Bu qarovsiz gulzor ichida
gazandalar gurkirab o'sar,
Kunduzlari quyosh shu'lasin
Kechalar oyyog'dusin to'sar.
Ammo kuchli kunlar keladi,
Baxsh etadi gullarga surur.
Parvo qilmay gazandalarga
O'pa boshlar g'unchalarni nur.*

Shavkat Rahmon bu she'rida ramzni to'g'ridan to'g'ri tabiatdan oladi. O'zi yashab turgan zaminni qarovsiz gulzor shaklida ko'radi. Bu gulzorda gurkurab o'sayotgan xoinlar ko'pligidan eziladi. Lekin har galgidek, umidsizlikdan chekinadi. Qachondir bu gulzorga ham quyosh nurlari tushishiga, qachondir Vatanni mustaqillikka erishishiga umid qiladi.

Taqdir ajoyibotlari ko'p va turfadir. Shavkat Rahmon qalami o'tkir shoir. Shoir she'rlarida to'q qofiya juda kam uchraydi. Bu shunchaki tasodif emas. "Shavkat musiqiy mutanosiblikdan, kishi tuyg'ularini allalab chalg'itadigan nazmiy ohangdorlikdan atay qochadi. Kishi yuragiga bexato yetib boradigan, tekkan joyida iz qoldiradigan zalvorli va qirrador tuyg'ularni o'shanga monand yo'sinda ifoda etadi. She'r to'q qofiyasiz bo'lsa, kishini allalovchi musiqiylik unchalar kuchli bo'lmaydi. Har bir so'z misradagi umumiy ohang og'ushiga singib ketmaydi va o'quvchi uni alohida idrok etish imkoniga ega bo'ladi. Shavkat Rahmon bitganlarida tovushlar o'ynatib, hissiyotning nozik qirralarini titkilab, so'zdan olov chiqarishga emas, balki o'z-o'zidan gurkirab turgan ruhning harakatini, porillab yonayotgan tuyg'ularning alangasini ifodalashga yaraydigan so'zlarni qidiradi..."¹.

Shavkat Rahmon "Asotirlar kitobi" she'rida majoz vositasida nihoyatda go'zal mazmunga ega bo'lgan fikrlarini bayon etadi. Ushbu she'r sho'ro zamonida yozilgan. She'rdan shoir ramzlardan ajoyib usulda foydalanadi. Kitob bu – Vatanning mus-

¹Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. –Toshkent: Yangi asr avlodi. 2006. – B. 236.

taqilligi, yurt ozodligi, xalqning o'ziga qaytgan tarixi. Yurt mustaqil bo'lsa, hamma uyg'onadi. Hozir hamma g'aflatda. Bahodirlar ham chuqur uyquga ketgan. Istiqloq g'oyasi qizlar haqiqat sari safari asnosida tug'ilib voyaga yetgan. Shoir mustaqillik kitobi ochilgach, o'zbekning to'qson ikki urug'i qayta birlashishiga umid qiladi. She'rning oxirgi misralari shoirning xitobi, ham buyrug'i, ham iltimosi sifatida jaranglaydi:

*Ammo ketar chog'ingda
Unutmagil insofni –
Bolalarning oldida
Ochiq qoldir kitobni.*

Shoir katta mahorat ila ketar chog'ingda, deya o'limni ta'riflar ekan, qo'lga kiritilgan mustaqillikni avlodlarga yetkazish va ularning keyingi ozodligini ta'minlashni o'zining va zamondoshlarining burchi ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Shavkat Rahmon adabiyot uchun hamma narsani bo'yniga olgan shoir edi. G'alamislarining tahdid va tazyiqlaridan ortga chekinadigan, qo'rqib talvasaga tushadigan ijodkor emas edi. 20- yillar avlodi she'riyatida mustamlaka bo'lib qolgan Vatan tuyg'usini qanchalik o'rtanib kuylagan bo'lsa, 70–80-yillar she'riyatida Vatan mustaqilligini, erk va ozodlikni qayta qo'lga kiritish g'oyasi baralla yangradi. 20-yillarda she'riyatda aytilmoqchi bo'lgan fikr, g'oyalar ramz va timsollarga yo'g'rilib, tagma'no ichiga singdirilib kuylangan bo'lsa, 70–80-yillar she'riyatida esa timsol va majozlar orqali ifodalangan tagma'nolarga

singdirilgan Vatan mavzusi tobora ochiq-oydin, namoyishkorona ifoda topib, she'r ba'zan badiiy ravonlikdan ko'ra, ohangdor nutq shaklida ham namoyon bo'ldi. Shavkat Rahmon she'rlari bu fikrlarimizga yorqin misol bo'la oladi. Shuningdek, Shavkat Rahmon she'riyatida tog' obrazi alohida o'ringa ega. Shoir bu obrazga turli ramzlar yuklaydi. Gohida tog' insonning ichki kechinmalari, tuyg'ulari yo'sinida tasvirlansa, gohida insonning o'zi sifatida namoyon bo'ladi. Har qanday holatda ham bu obraz she'rda badiiylik va obrazlilikning yuksalishiga hissa qo'sha olgan. Shu sababli Shavkat Rahmonning tog' obrazi bilan bog'liq she'rlarini alohida turkum sifatida ham qabul qilish mumkin. Aytish kerakki, lirik asarlarda tabiat nechog'lik keng tasvirlanmasin, u hamisha vosita darajasida qoladi. Inson ruhiyatini ko'rsatish esa, asosiy maqsad maqomida turadi. Chunki tabiat tasviri natijasida ifodalangan ruhiy holat inson ma'naviyatining yangi bir jihatini namoyon etgandagina, badiiy qimmat kasb etadi. Shu jihatdan Shavkat Rahmon she'rlari diqqatga sazovordir. Shavkat Rahmonning "Yosh tog'lar" she'rini badiiylikning go'zal namunasi sifatida e'tirof etish mumkin. Shoir she'rni odatdagi kabi tasvir usuli bilan boshlaydi. Garchi she'rda tabiat lirikasi bo'lsa-da, aslida shoir ramzlar orqali o'tmishni yodga oladi. Uning nazdida uxlab yotgan tog'lar bizga ulkan ilmiy merosni xazina qilib, tashlab ketgan ajdodlarimiz edi. Bu xazinalardan, hattoki, butun dunyo bahramand bo'lganini aytmoqchi bo'ladi.

*Kuch yog'ilgan
gavdalarini
saratoning o'tiga toblab,
ochib qo'yib xazinalarin,
uxlab yotar o'spirin tog'lar.*

Keyingi misralarda shoir maqsadini ocha boshlaydi. Uning-cha, yo'lovchilar mangu safar oldidan birpasgina nafas rostdashga chog'lanishadi.

*Go'yo mangu safarga chiqqan
Yo'lovchilar horgan ko'yicha,
o'tirgan-u,
birpas mizg'igan.*

She'r so'ngida shoir maqsadi ayonlashadi. Sodda bolalar – Vatan tarixi, uning o'tmishi. Ular bir nafasgina ko'z yumgan edilar. Istibdod natijasida oradan million yillar o'tdi. Shoir o'z milliy boyliklarini ocha olmayotganidan o'rtanadi. Sodda bolalarning bir nafaslik ko'z yumishi, avlodlarning ming yillikka ega tarixdan million yillar ajratib qo'yilishiga sabab bo'lgan. Shoir bunda ajdodlardan nolimaydi, balki bir nafasdan so'ng uyg'otish uchun "poyloqchilikka" qolgan xoinlarga o'z nafratini sochadi. Agar ular o'z e'tiqodida mustahkam turganlarida edi, o'zbek xalqi mustamlaka bo'lmas, tarixi unutilmas edi, demoqchidek bo'ladi.

*Bir nafasga ko'z yumgandilar
million yillar o'tdi oradan.
Uxlab yotar yurakni o'rtab,*

*uxlab yotar
sodda bolalar.*

Shoir she'riyatidagi tog' shoirning yuksalib turgan ruhi, iztirobi va uning quvonchidir. Shuning uchun bo'lsa kerak, shoirning ilk she'rlaridan to so'nggisigacha tog'lar to'g'risida so'z boradi.

*Tog' xo'rsinib yubordi og'ir –
Vodiylarga yugurdi shamol,
Yuzlarini yashirdi hilol.*

*Tog' xo'rsinib yubordi og'ir.
Teran xobdan uyg'ondi yurak,
Tog'lar kabi xo'rsinmoq kerak.*

80-yillarda faol qalam tebratgan U.Azim, Sh. Rahmon, X. Davron, A. Suyun, Y. Eshbek, M. Kenjabek kabi shoirlarning umumiy jihati shundaki, ularda – millat ruhini ko'tarish, millatga shonshavkatga to'la o'tmishni eslatish, loqaydlikdan nafratlanish, g'aflatdan uyg'otishga da'vat kabi xususiyatlar uslubiy o'xshashlilarga sabab bo'lgan.

*Ulkan, dag'al kaftlar –
yaproqlarida
oltin anjirlarni tutar anjirzor.
Ko'r nurlar daydigan bu saltanatda
sabr - qanoatli qancha zanji bor.*

Yuqoridagi misralarda shoirning ajib bir manzara chizganini ko'rish mumkin. Shoir she'r mazmunini ijobiylikdan salbiylikka qarab yetaklaydi.

Shu o'rinda aytish kerakki, shoirning aksariyat she'rlarida bu yo'nalish ustuvorlik qiladi. Dag'al kaftlar – dehqonchilik bilan umr o'tkazayotgan oddiy xalq. Oltin anjirlar, anjirzorlar – milliy boyliklar, yerosti boyliklari. Dehqonlar o'zlari yetishtirgan barcha narsani qo'sh qo'llab “markaz”ga eltadi. Bu yurtida dehqon yo'q, bu yurtida xalq yo'q. Bu yurtida sabr-qanoatni kasb qilgan, faqat buyruqni bajarishga qodir bo'lgan qullar bor. Shoir buni yozish uchun qanchalik qiynoqlarni ko'ngildan o'tkazgan, millati, xalqi qullik darajasiga tushib qolganidan kuyingan.

Shavkat Rahmon tabiat orqali insonlarga murojaat qiladi. Yuqoridagi misralarda Shavkat Rahmonning yana bir kashfiyotini ko'rish mumkin. Nazdimda, shoir “Yosh tog'lar” she'rida hilol obraziga salbiy ma'no yuklayotgandek. Sababi, tog'ning xo'rsinib yuborishini xalqning istiqloлга intilishi, deb belgilasak, shu ma'noda, hilolni bu harakatga to'sqinlik qilishga urinayotgan sovet hukumati deyish mumkin. Bu kabi fikriy yangiliklarni Shavkat Rahmon she'riyatida juda ko'plab uchratish mumkin. Xususan, “Tong ochar ko'zlarin...” she'rida shoir shunday yozadi:

*Chumoli, mehnatkash chumoli
kuyinma, atrofga bir qara –
maysalar, oh, qanday himoli,
dunyoni qilma ko'p masxara.*

Shoir chumoli obrazi orqali insonga – xalqqa murojaat qiladi. Hayotni sevishga, undan zavq olishga undaydi. Qaysidir ma'noda o'zbek xalqi bosqinchilar hukmronligi davrida aynan shu chu-

molidek mehnat qilgan. Bilamizki, bu ularning o'zidan ko'ra ko'proq Sho'ro hukumati foydasi-ga xizmat qilar edi. Shu bois, shoir xalqni dunyo go'zalliklaridan bahra olishga, bir dam bo'lsa-da, mehnatdan bosh ko'tarishga, insoniylik qadrini anglashga undagan desak, xato bo'lmaydi. Shavkat Rahmon she'riyati “tagida qudratli daryolar” bor ummonga o'xshaydi. Shu sabab, uning she'rlari tafakkurga chorlaydi. Uning zamirida qatmaqat ma'nolar yashiringan. Insonga insonligini yodiga soladi. O'z Vatani-da bevtan yurganlarga vatanini eslatadi, vaysaqi so'zamollarga, so'zfurushlarga so'z qadridan dars beradi. Ko'ngli o'ksigan, qullikka mahkum kimsaning diliga “Vatan, Xalq, Jasorat, Kurash, Ozodlik” urug'ini sochadi. Shu bois, Bahodir Karimov o'zining “Shoirning o'tkir so'zi” maqolasida Shavkat Rahmon lirikasi xususida to'xtalib, shunday yozadi: “Shavkat Rahmon nazmi ko'ngilga lirik kayfiyat ulashish yoki charchaganda dam olish uchun o'qiladigan she'rlar emas, balki u ruhiyatga qanot bag'ishlaydigan, qalbga quvvat beradigan, jasoratli she'riyatdir”¹. Chinakamiga, Shavkat Rahmon she'riyatida obrazlar tizimi nihoyatda mukammal, izchil va ramziy asosga ega. Chunki uning she'rlaridagi obrazlar ijtimoiylik bilan omixtalashgan. Shoir lirikasidagi obrazlar tizimiga – “ulug'vor obrazlar” deya baho berish mumkin. Boisi, uning ijodidagi asosiy obrazlar: tog', quyosh, daryo – buyuklik timsoli. Shoir ana shu timsollardagi eng betakror jihatlarni, havas qilgulik tomonlarni ilg'ay oladi. Shu bois, bu ob-

¹ Karimov B. Shoirning o'tkir so'zi. – “Shavkat Rahmonni xotirlab”. – Toshkent: Sharq. 2012. –B.127

razlarni ulug'laydi, ularni estetik ideal sifatida tavsiflaydi. Estetik ideal xususida Bahodir Karimov quyidagicha fikrlar bildiradi: "Ijod ahli gohida o'zlarining estetik idealini, badiiy g'oyalarini tabiatdan olingan ramzlar vositasida ifoda qiladi. Har bir shoirning estetik dunyosini anglatadigan obrazlar bo'ladi. Xususan, "Binafsha senmisan, binafsha senmi" degan satrlar Cho'lponni eslatadi. "Na'matak" Oybekdan darak beradi. "O'rik gullaganda" H. Olimjonga tegishli ta'bir, "Majnuntol tagiga o'tqazing meni", degan satrlar Mirtemirning shoh satrlaridir. Bunday obrazlar gohida shoir dunyosining, estetik olamining belgilovchilik xususiyati sifatida namoyon bo'ladi"¹. Shavkat Rahmon she'rlarida estetik ideal ifodasi o'laroq "tog" obrazi ko'p uchraydi. Shoirning "Uyg'oq tog'lar" nomli to'plami, "Yosh tog'lar", "Sulaymon tog'i etagidagi o'ylarim" nomli she'rlari bor. Uning she'rlarida "tog'larning musaffo qori" ko'zga tashlanadi, uning she'rlarida tog'lar so'zlaydi, "tog'lar abadiy cho'kkan nortuyalar"ga o'xshatiladi. Shoir tog'larining guldirashini eshitadi va lozim bo'lsa, tog'larining "ko'zini topadi". Eng oxirgi she'rlaridan birida shoir:

*Nodirajon, Shoirajon,
tanam qimir etmaydi,
olis-olis vohalardan,
tog'larimni chaqiring...
...boring, qorli tog'larga:
bir shoir yotibdi, deng,*

¹ Karimov B. Shoirning o'tkir so'zi. – "Shavkat Rahmonni xotirlab". – Toshkent: Sharq. 2012. –B.128

*Xudoning hovlisida...
Osmon to'la havolar
faqat menga yetmaydi*

deb yozadi. U tog'lar bilan suhbat quradi. Shavkat Rahmon ijodidagi bu estetik hodisaning o'z ruhiy-psixologik asosi mavjud. Shoir esini tanigandanoq, toqqa nazari tushgan, tog' bilan yurgan, tog' bilan nafas olgan... Shu ruhiy asos uning she'rlariga ko'chib badiiy libos kiygan jonli tog'lar obrazi tug'ilgan. Tog'lar issiqda erimaydi; sovuqda muzlamaydi; shamolda qimirlamaydi; sel oqizib ketmaydi. Shavkat Rahmon ruhi ham shu tog'lardek sobit va mustahkam. U minglab shoirlar ichida yolg'iz qolgan taqdirida ham o'z so'zidan, o'z estetik tamoyilidan yuz o'girmaydigan qalbi butun shoirdir. Shavkat Rahmonga estetik ideal bo'lgan yana bir obrazlardan biri quyosh timsolidir.

*Quyosh, senday yashasam yonib,
hech bilmasam qayg'u, o'limni,
ilonlarga... odamlarga ham
uzatardim qaynoq qo'limni.*

*Quyosh, senday yashasam yonib,
pisand qilmay ayozni, qishni,
men o'rganib olardim bir kun
hammaga teng kulib boqishni.*

Shoir quyoshga havas qiladi. Quyosh gul – u giyohni, yantoqni – hech narsani ajratmaydi. Barcha jonzotga, mavjudotga birdek nur sochaveradi. Shoir ham quyoshga o'xshashni orzu qiladi. Do'sti-

ga ham, dushmaniga ham yaxshilik qilishni, ularni kechirishni, buyuk bardosh sohibi bo'lishni istaydi. Biroq, o'z ahdiga, fe'liga sodiq qolgan shoir ochig'ini tan oladi:

*Biroq, senday yasholmam aslo,
Boqolmasman hammaga hushxol.
Buyuk emas bardoshim senday,
Erta tongda chiqmog'im mahol.*

Shoir eng ko'p murojaat qiluvchi obrazlardan yana biri dengizdir. Bu bejiz emas, albatta. Chunki dengiz va shoir ruhiyatida o'xshashlik bor. Uning fe'li ham dengizdek tizginsiz, asov. Yuragi dengizdek to'liq. Uning "Dengiz bilan uchrashuv" she'rida dengiz va ruhiyati qalbi o'rtasidagi bog'liqlik kuylangandek, go'yo:

*Nafasini tuydim,
jismimga
yuragimdan taralar titroq.
Sangin g'aflat aro qisilgan
Bu dengizda yashar qaldiraq.
Go'yo buzib yerning haddini,
yetgandayman boshqa olamga,
so'ngra bunda tashlab qalbini
o'tib ketgan jo'mard odamlar.*

Xuddi shoir yuragidagi titroq bilan dengizda yashovchi qaldiraq orasida o'xshashlik bordek tuyuladi, kishiga. Shoir dengizni odamlar – jo'mard odamlar tashlab ketgan yurakka qiyoslaydi. Yurak va dengiz o'rtasidagi o'xshashlikni bundan-da go'-

zalroq tavsiflashning imkoni yo'q. Ko'rinib turganidek, Shavkat Rahmon so'zlari bamisli "eshilgan po'latday" daryo so'z, "chaqilmas toshlarday" tog' so'z.

Shavkat Rahmon o'z she'rlariga ramziy timsollarni tabiatdan oladi. Shu bois, uning lirikasida tog', daryo, quyosh, gul, maysalar asosiy obrazlar sanaladi. Shundan kelib chiqqan holda, Nodir Jonuzoq o'zining "Qalb qadrtoni" maqolasida Shavkat Rahmon she'rlarini shartli ravishda uch qismga ajratadi:

1. *Tabiat*
2. *Tabiat va Jamiyat*
3. *Jamiyat*

Shavkat Rahmonning birinchi turga mansub she'rlarida yuqorida ta'kidlaganimizdek, tabiatning rangin manzaralari aks etadi. Shoirning tuyg'usi tonggi shabnamdek toza. U kapalak qanotiday harir xayolidan bahra oladi. Entikib-entikib musaffo havoni ichga simiradi, sevinch yoshlari zilol suvlarga qo'shilib ketadi. Zavqlanib uchgisi keladi. Shamol tog' xo'rsinig'i; gullagan daraxtlar oq mash'ala ekanini ilg'aydi; ko'zlarini erinib ochayotgan tong, yobonda gurkirab o'sayotgan tun, dovdirab uxlayotgan bog', yashashni o'rgatuvchi daraxt hamma hammasi shoirning nazari-dan chetda qolmaydi. U boshqa mavjudotlar kabi o'zini tabiatning teng huquqli farzandi deb hisoblaydi. Ha, aynan teng huquqli farzandi – boshqalardan ko'ra ko'proq imtiyozga ega, hokimi mutlaqdek emas!

Bu she'rlar beg'ubor qalbg'a daxldor bo'lib, toza tuyg'u silqib, tovlanib turadi.

*Tun gurkirab o'sar yobon
O'sganida bir to'p gulxayri.
Boshlanadi singan suvlarda,
Yalangoyoq boylarning sayri.*

*Maysalarning bag'riga kirar,
Qizib ketgan tog'lik shabada.
Shivir-shivir boshlanib ketar
Bu yulduzli oydin kapada.*

She'r kishini, uning ruhini o'z olamiga er-gashtirib keta oladi. Ko'z o'ngimizda shoir tasvir-lagan tunning aksi gavdalanadi. Maysalarni sil-kitgan, silkigan maysalardan taralgan shivir-shi-vir sas tog'lik shamolning ishi. Yorug' tun – oydin kapa. Go'yo, shu misralar tabiatning joni borligi-ni hech qachon ilg'amagan ko'zlarga tabiatning "sir"larini fosh qilgandek. Samimiy, toza, to'yimli satrlar.

Shoir she'rlarning ikkinchi qismi tabiat va jamiyat mavzusiga daxldor. Lirik qahramon endi o't-o'lanlar, tog'-toshlar, turli nabotot-u hayvonot, oy yulduzlar olamida mangu qolmasligini, ular-dan farqli o'laroq jamiyatga bog'liq burchlari bor-ligini anglab yeta boshlaydi. Endi uning bir oyog'i tabiat qo'ynida bo'lsa, bir oyog'i jamiyat bag'rida bo'ladi. Mabodo u endi tabiat unsurlariga muroja-at qilgan taqdirda ham, xulosa jamiyatga tegishli bo'lib chiqaveradi. Bu jarayon Shavkat Rahmon lirikasida tabiatning badiiy timsol ekanligini,

ramziylik vositasida ochilishini izohlaydi. Sho-ir bir qo'li bilan maysadagi qo'ng'izni silayotgan bir paytda, ikkinchi qo'li bilan nomussiz odam-ning yuziga tarsaki tortadi. U endi avvalgiday fa-qat musaffo manzaralarni emas, balki o'rmonga qo'shog'iz miltiq ko'tarib kirib kelgan odamning qanday qilib bo'riga aylanishini; g'aroyib davra-dagi odamlar oyog'ining turfa hayvonlar tuyog'i-ga do'nishini; betayin kimsalar nomini ko'tarib o'sayotgan gung qoyalarni; zavol topayotgan be-zabon, xokisor yerning mungli ko'zlarini; baland daraxtlarning ingroqlarini... va shunga o'xshash ma'yus holatlarni ko'ra boshlaydi, ularning g'am-gin ovozi borlig'ida aks sado beradi. She'rlar ham biroz bo'yiga qarab o'sganday. Taassurot ham endi ko'ngildan ong tomon ko'chadi. Ya'ni, bu she'rlar ko'proq tafakkurga daxldor bo'lib, lo'nda fikr bo'rtib turadi.

*Og'izlarda bulutday ko'pik,
yuzlari oq, ichlari qora.
Qiziq, bu zotlar qaylarda,
kimlarnidir qilar idora.*

Shoirning "Davra" she'rida tasvirlangan bu insonlar odamiyligini yo'qotgan. Shoirning yuqori-dagi tasviridayoq, ularning odamdan ko'ra ko'proq hayvonga o'xshab ketishini ko'rsatadi – og'izlarda ko'pik, ichlari qora. Ular jisman inson qilib yara-tilgan bo'lsalar-da, qalban, ma'nan insoniylikdan olisdirlar. Shu bois, endi ular jisman ham hayvonga do'nadilar, go'yo:

*Ro'y berardi ajab hodisa:
hatto sig'mas inson aqliga.
Davradagi oyoqlar asta
kirar tuyuq chovut shakliga.
Birida mol, birida eshak,
bittasida to'ng'iz tuyog'i.
Bo'ripanja o'sar birida,
boshqasida – tulki oyog'i...*

Shavkat Rahmon lirikasiga xos eng muhim jihat, uning she'riyatida umidsizlik yo'q. Shoir qachondir ozgina ruhan siqilsa-da, baribir u kurashishga, ezgulikka intilishga kuch topa oladi. "Davra" she'rida ham shoir shaxsiyati va lirikasiga xos bo'lgan ana shu xususiyat kuzatiladi. Davrada ham ruhan, ham ma'nan hayvonga aylanib borayotgan kishilar ko'p bo'lsa-da, xayriyatki, unda inson butunlay yo'q emas. Ya'ni oz bo'lsa-da, yaxshi insonlar bor. Demak, shoir umidi tirik.

*Titrab ketdi to'satdan Odam,
Mana, navbat keldi o'ziga.
Hayron bo'lib tikilib qoldi,
Ishonmadi Odam ko'ziga.
So'ng o'rnidan turdi, tupurdi,
bu o'tirish yoqmadi chog'i.
Olib ketdi oyoqlarini –
Odamniki edi oyog'i...*

Shoir ana shunday e'tiqodli, ruhan sog'lom insonlar borligidan mamnun. Bunday odamlar uning yashashiga kuch beradi. Shavkat Rahmon zaminning, Vatanning porloq kelajagini shunday inson-

lar qurishiga ishonadi va shunday deydi: "Har qanday mamlakatni yuksaltiradigan ham, yer bilan yakson qiladigan ham odam ekanini unutmaylik. E'tiqodli, imonli kishilarimizni asrab-avaylashni o'rganaylik". Bu so'zlar shoirning yashash e'tiqodi darajasiga ko'tarilganini uning o'tli misralaridan anglashimiz mumkin.

Shoirning uchinchi qismdagi she'rlari tamoman jamiyatga bog'langan va kuchli ijtimoiy ruhga ega. Endi shoir ikkinchi oyog'ini ham jamiyat uzra qo'ygan. Uning e'tiborini tabiatning maftunkor manzaralari emas, balki jamiyatning og'riqli holatlari jalb qiladi. U insonlarning o'zaro kurashi vahshiy hayvonlarnikidan ham ko'ra beshafqatroq ekanini, agar yo'lbars-u bo'rilar ochiq, yuzma-yuz tishlashsa, odamzod orqadan xanjar sanchishini tushunib yetadi. Shu bois, har soniya hushyor turishga, g'aflatda qolmaslikka majbur u. Negaki, "qaltis lahzalar yo'q – qaltis umr bor", bu umrni ko'zlari to'ymagan jobirlar yamlab yutishga tayyor, u endi muhabbatga emas, nafratga suyanadi: "Ishqimni g'ajigan bo'ridir qahrim" deya, ig'volar qurtlagan, sho'rlik diyorida zamon u makonin butkul yo'qotgan bir ulug' faryodga aylanadi! Bu shunchaki bir shaxsiy nola bo'lib qolmasdan, turfa fitnalar iskanjasida istibdodga qarshi tish qayragan ulug' elning faryodi edi...

*Na'ra to'rtaymikan
to'qson to'qqiz ming
pahlavon bobomning ovozin yig'ib.
Dahmalar qopqog'in taqqilataymi
faryod qilaymikin, osmonni yirtib?!*

*Qo 'pordim yuragim hayqirig'ini,
Hayqiriq zamin-u ko'kka sig'madi.
Bu yomon holimdan yorildi tog'lar,
"Suvlari sirqirab toshlar yig'ladi".*

Endi aks sado, zamzamalar ongdan ruhga ko'chadi. She'rlar bezovta ruhga daxldor bo'lib, to'lg'onish-u tug'yonlar qurshovida qolamiz.

Ko'ngil – Ong – Ruh.

Ko'ngil yaprog'idan Ong cho'qqisiga sakragan shoir Ruh osmoniga parvoz qiladi va tuban yerga qaytib tushmaydi.

*Bir elat Mirrixga,
biri – Zuhalga,
bir elat tikilib yotar Zuhroga.
Chegarasiz bo'lsa inson imkoni
tabiat odamga bir qanot bersa,
yerda qolarmikan birorta odam,
abadiy kulfatlar maskani – yerda?*

Nega yer kulfatlar maskani? Yerni kulfatlar maskaniga aylantirgan kim, balki bir-birining g'amini yemay qo'ygan, bir-biriga g'amxo'rlik qilishni unutgan odamlar, bir-biridan yiroqlashib borayotgan elatlardir?

*Zamin parcha-parcha,
qayga burilma
ko'ksingga g'archillab qadalar tig'lar.
Qachon ellar tanir bir-birlarini,
qachon bu qit'alar
topishib yig'lar?*

Ko'rib turibmizki, Shavkat Rahmon e'tiqodli insonlar uchun kurashadi, ularni asrab-avaylashga undaydi, yoxud e'tiqodini unutgan kimsalarni "tuyoqli hayvonlarga" aylantirib-da qo'yaveradi. Lirik qahramon kayfiyati o'zgaruvchan. Nodir Jonuzoq ta'biri bilan aytganda, "Shavkat Rahmon she'riyati bahor osmoniga o'xshaydi. Uning rangin, go'zal kamalagi jilolanib, kutilmaganda keskir shamshirga aylanadiki, bulutlar bag'ri sitilib, yer-u ko'kni momaqaldiraq ovozi, umidbaxsh chaqinlar tuta boshlaydi. Shavkat Rahmonning ko'p bitiklarida olis o'tmish sirli ranglarda va ramzlarda aks ettiriladiki, o'sha bitiklar mustaqillikdan keyin ham aslo, ahamiyatini yo'qotmadi. Shoir nafaqat bir millat taqdiriga qayg'uradi, balki butun bashariyat dardi bilan yonadi. U ozodlikni har nimadan qadrli ne'mat ekanligini tushunadi, o'quvchiga tushuntiradi. "Uchayotgan odam" she'ri fikrimizning isbotidir. She'r tushni eslash asnosida boshlangan. "Ko'pincha uchaman, uzoq uchaman, shundoq teraklarning uch-uchlarida". Haqiqatan ham, tushda uchish holati bor gap. Tushda uchmagan odam kam topilsa kerak. Lekin ijodkor bo'lmagan odam tushiga alohida jiddiylik bilan qaralmaydi. Shoir aynan o'sha – uchish holatini qalamga olgan:

*Sezaman,
tig'dayin shoxlar jismimni
o'zimning qonimga bo'yar, alhazar,
Yuragim qamalgan qushday potirlar,
Quvar qon hidini olgan kalxatlar.*

Qush san'atning barcha turlarida ozodlik, erk, hurriyat ramzi sifatida talqin etib kelinadi. Yuqoridagi misralarda shoir o'zini tutqun qushga o'xshatadi. Ya'nikim, shoir millati mustabid tuzum iskanjasida. U ilhomni millatidan oladi, xalqidan oladi. Xalqi iskanjada ekan, shoirning yuragi ham qafasda bo'ladi. Shoir millat ozodligi uchun kurashadi. Bu yo'lda unga ko'plab tuhmatlar, bo'htonlar bilan qarshi chiqishdi. Kalxatlar unga turli tomondan hujum qilishadi.

*Shundoq bir shum holat iskanjasida
Yerning tortish kuchin yengmoqchi bo'lib.
Silkiyman qontalash qanotlarimni,
Ming bor tirilaman,
Ming bora o'lib.*

Shoir ularga qarshi o'zida kuch topadi. Ozodlik tuyg'usi unga madad bag'ishlaydi. Qalbi yarador bo'lsa-da, she'r yozmoqqa o'zida kuch topa oladi. Xalqni ma'rifatli qilish orqali istiqloлга erishishga umid qiladi. Muallif tushida ko'rganlarini ramziy vositalarda, obrazlarda gavdalan-tirmoqda. Tepaga ko'tarilgani sayin pastga uni nimadir tortaveradi. Qanotlari qontalash bo'lib qolgan: uchayotgan odam yerda o'rnashgan zulm, qabohatdan xalos bo'lib, osmon-u falakka singib ketmoqchi. Chunki koinot olami butunlay boshqacha:

*Yuksakda bir olam – moviy ranglarda,
ozod ruhlar uchun boshpana bergan.
Uchib ketolmasdim,
Go'yo jismimni
ko'rinmas rishtalar bog'lagan yerga.*

Shoir chin dildan uzoqlarga, osmonga uchib ketishni istaydi. Lekin uni yerda ona vatan degan tuyg'u ko'rinmas rishtalar bilan bog'lab olgan. U bu tuyg'ulardan voz kechib keta olmaydi. Uyg'onganidan so'ng, shoir o'sha holatni eslarkan, "nega men uchaman, qayga uchaman, nega takrorlanar g'aroyib tushlar?..", deya o'ziga savol beradi va o'y-lab-o'ylab xulosa yasaydi:

*Demak, qachonlardir qanotim bo'lgan,
demak, ajdodlarim to'ralgan qushdan.
Haftalab o'ylayman
oylab o'ylayman,
ne uchun qushlarga tortar qonlarim?
Qachondir bahaybat qush edim, desam.
nega siz kulasiz, og'ajonlarim!*

Shoir yuqoridagi misralar bilan yana o't-mishga murojaat qilayotgandek. Tarixda uning bobokaloni Temur Ko'ragoniy tuzgan ulkan saltanat bor edi. Shuning uchun shoir qo'rqmasdan ajdodlarim ozod bo'lgan va ozodlikka intilish mening qonimda bor, deydi. Shoir mustabidchilar kulsalar-da, buni ochiq aytadi, buni faxr deb tuyadi. Shu o'rinda N. Mirzayevaning quyidagi fikrlariga e'tibor bersak: "...tushda uchish shunchaki ongosti qavatlarida yig'ilgan energiya hosilasida yuzaga kelmagan. Bunda haqiqat bor. Inson keksayganida bolalik davrlarini bot-bot tushida ko'rgani kabi ba'zan o'sha bolalikdan avvalgi o'tmish – ajdodlar xotirasi tilga kirishi ham mumkin ekan. Shoir tush manzaralarini haqiqat o'rnida qabul qilmoqda... Xalq og'zaki ijodida

uchish mavzusi qayta va qayta tilga olinishi, bejiz emas. Hali uchoqlar ixtiro qilinmasdan burun, ajdodlarimiz “uchar gilamlar” to‘g‘risida ertak aytib yurishgan. Ehtimol, ertaklar qatida haqiqat yashiringandir?”¹.

*Men qushman,
qachondir yerga qulagan,
keyincha zaminga moslashgan jismim.
G‘aroyib tushlarim esa, shubhasiz,
yodimning qo‘ymasdan qolgan bir qismi...*

Yod xati xotiro. Xotiro qanotga qo‘shilib kuyib ketgan. Tushni shoir xotirotning ajralib qolgan bir bo‘lagi, deb hisoblaydi. O‘sha xotiro nafaqat tushda, balki o‘ngida ham lirik qahramon harakatida zuhur etib turadi, u faqat tushida yashash bilan kifoyalanmaydi:

*Goh esa o‘ngimda
Kuymasdan qolgan
xotiram parchasi sabab bo‘larmi.
Gavjum shaharlarning ko‘chalarida
qanotday yozilib ketar qo‘llarim.*

Ramz timsollari uxlayotganlar – g‘aflat quyuc mazkur she‘r tush bayoni vositasida dashnom berish odam uyqusida yotgan kishilarga asnosida yanada yuksak pardada jaranglaydi. Uchayotgan obrazini yaratarkan, uxlayotgan, uchmayotgan odamlarni malomat o‘qiga nishon qiladi:

¹ Mirzayeva N. Istiqloлга intilgan shoir. – Toshkent: Tamaddun. 2011. – B.90.

*Qayga uchish kerak,
bilmayman, ammo,
bilarsiz, bemalol uxlayotganlar –
silkinib-silkinib kulayotganlar?!*

Parvoz zavqini tuyar ekan, lirik qahramon laz-zatlanish barobarida, shu baxtdan mosuvo uxlayotganlarga achinadi, ularni uyg‘onishga chorlaydi, haqiqatni anglatish uchun lirik qahramon achchiq so‘zlarni ishlatishdan ham toymaydi. Qabihlikka, razolatga botayotgan xalqni uyg‘otish uchun hamma narsaga tayyor:

*Bilsangiz,
shu topda jism-u jonimni
zaharga aylanib, yoqar qonlarim.
Qushday bo‘zlab uchdim boshlaringizda,
qushligin unutan, og‘ajonlarim.*

She‘rning avj nuqtasi shu: tushlar dastlab, on-gosti hodisasi sifatida qalamga olingan edi. Endi esa tushdagi shiddat haqiqiy hayotga tutashtirildi. Ramz – timsollar vositasida ozodlikka chorlanadi. Shoir qayta va qayta xalqini ozodlik uchun kurashga chorlaydi:

*Zora eslasangiz,
zora tilagim,
balki nasib bo‘lar sizlar-la uchmak.
Hozircha kechirdim, saqlamadim kek
chunki men odammas,
chunki men qushman.*

Shavkat Rahmonning “Uchayotgan odam” she’ri faqat bir tuzum sharoitidagi tuqunlikka qarshi qaratilmagan, balki umuman odamzod fe’l-atvoridagi tutqunlikka ko’nikish, qismat bitiklariga rozi bo’lish, zulmga itoat qilish, insoniylikdan mosuvo bo’lib, hayvoniylikni bo’yniga olish kabi illatlarga isyon sifatida bitilgan.

Shoir boshqalar e’tibor qaratmaydigan tilsimlarni she’rga ko’chiradi, tushda uchdingmi, demak, taqdiringda parvoz bor. Agarda inson ixlos bilan biror ishga qat’iy kirishsa, uni ajdodlarining ruhi qo’llab-quvvatlaydi.

Shoir bunday saodatga ishonadi va boshqalarni ham ishontirishga harakat qiladi. Shavkat Rahmon she’riyatida haqsizlikka, loqaydlik va beparvolikka qarshi isyon bo’rtib turadi. Bu isyonni shoir ramzlarda obrazli gavdalantiradi.

II BOB

SHAVKAT RAHMON LIRIKASIDA MILLIY RUH

Har bir ijodkor o’z ovozigaga ega, deyishadi. Chindan ham shunaqa. Har bir shoir she’rining o’ziga XOS ovozi, o’ziga XOS musiqasi bor. Qo’polroq o’xshatish qilsak, she’rning ta’mi bor, chaynalganda his qilish mumkin bo’lgan ta’m. Shunday she’rlar borki, ularning ta’mi faqatgina o’zbek taomlariga xos. Ho’plasang, choyni tafti tilingni kuydirgandek bo’ladi. Bu holat hamma shoirning she’riyatida ham uchrayvermaydi. Buni she’riyatida ana shunday o’zbekona ohanglar jaranglaydi. Buni shoirning bir nechta she’rlari misolida ko’rib chiqamiz. Shavkat Rahmon lirikasida milliy ohanglarning tarannum etilishi bevosita xalq og’zaki ijodi bilan bog’liq o’rinlarda yaqqol ko’rinadi. Bu kabi she’rlarda shoir dostonlarga, afsonalarga, ertaklarga, xalq urfodatlariga yuzlanadi. Bu o’rinda fikrimizni quyidagi she’r tahlili bilan ifodalashni boshlaymiz:

*Qanday yaxshi
Ertakdagiday
bir yumalab daryoga do’nmoq.
Bir yumalab oppoq kaptarday
daraxtlarning shoxiga qo’nmoq.*

Bu o’rinda hech shubhasiz, xalq dostonlaridagi g’ayritabiiy qobiliyatga, qudratga ega

bo'lgan qahramonlar ko'z oldimizga keladi. Bir yumalab bir qiyofadan ikkinchi qiyofaga kira oladigan, mo'jizaviy qudratga ega bo'lgan juda ko'plab obrazlarni bilamiz. Xususan, "Malikayi ayyor" dostonida Avaz, Shoqalandar, Shozargar kabi obrazlar bir yumalab olmaga, sichqonga, uzukka va shu kabi turli xil predmetlarga do'nadilar. Dostonlarda yuz beradigan Shavkat Rahmon she'rida aynan shu voqea, harakat haqida so'z boradi. Ammo nega? Bu kabi tasvir yo'sini shoirga nima uchun kerak? Fikr keyingi misralarda ravshanlashadi.

*Do'stlarim bor,
ular har safar
tog' soyiday sharqirab oqar,
atirgulga aylanib tongda
suluvlarning ko'ksini yoqar.
Bir do'stim bor –
g'oyat riyokor.
Bir yumalab tulki bo'ladi.
Bir yumalab do'nar odamga
va baribir kulgi bo'ladi.*

Ko'rinib turganidek, bu o'rinda shoir o'z fikrini ifodalash uchun xalq dostonlaridagi voqealar tizimidan foydalangan holda kompozitsion yaxlitlik hosil qiladi. Dostonlardagi voqealar tizimidan unumli foydalanib, o'z maqsadini ochib beradi. Ya'ni she'rda ikkiyuzlamachilik qattiq qoralanadi, achchiq kinoya vositasida fikr bildiriladi, Ikkiyuzlamachilik shoir eng ko'p tanqid ostiga olgan, eng ko'p nafratlangan illatlardan biridir.

Shavkat Rahmon ijodida milliy ruh, milliy vositalardan foydalanilgan holda ochib berilgan fikr-mulohazalar, o'tli satrlar juda ko'plab uchraydi. Shoirning ijodida milliy ruhni eng avvalo, xalqning milliy boyligi bo'lmish ertak, doston, maqollardan olgan satrlarni anchagina topish mumkin. "Jangda o'lgan emas biror bahodir" deb nomlangan she'r fikrimizga yaqqol misol bo'la oladi.

*Jangda o'lgan emas
biror bahodir.
Bari halok bo'lgan xiyonatlardan,
Toshday uxlaganda to'shlarin ochib,
Yo zahar qo'shilgan ziyofatlardan.*

Shu o'rinda ko'z oldimizda Surhayl kampir makriga tushgan Alpomish gavdalanadi. Mehmondorchilikda Surhaylning hiylasi bilan mast qilingan bu qahramon yetti yil zindonda qolib ketadi. Yoxud Qur'onni o'rta qo'yib Azbarxo'ja bilan do'st bo'lgan Kuntug'mish obrazi xayolimizga keladi. Ishongan do'sti uni aldab mast qilib, eng yaqin insonlaridan, oilasidan ajratadi. Uni g'am-anduhlar, sargardonlik iskanjasida qoldiradi. "Ravshan" dostonida esa mast uyquda ekanligida Shirvon shohining zindonbandi bo'lgan Ravshan uni qutqarish uchun kelgan Hasanga, ya'ni otasiga shunday deydi:

*Uyquda boyladi nozik qo'limni,
Sog'indim, otajon, Chambil elimni.
Tor zindonda: "Vo, ota", – deb yig'ladim,
Ko'rdingmi, otajon, mening holimni.*

Shavkat Rahmon keyingi misralarda quyidagicha davom ettiradi:

*Biror asotirda
bahodirlarni
hattoki yuz boshli ajdar yemagan,
Ming bir sinoatli yalmog'izlar ham,
tog'larni o'ynagan devlar yengmagan.*

Chindan ham, bitta non uchun Kuntug'mish ajdahoni yengadi. "Malikayi ayyor" da Avaz qancha devlar orasidan salomat chiqadi. Shu dostonida Asad va Shodmon mergan obrazlari bor. Bu obrazlar dostonida shaxsiy qiyofasi yo'q, Avazga yomonlik qilish, ya'ni uning joniga qasd qilish maqsadida Avazning yonida paydo bo'lgan hamrohlar sifatida tasvirlanadi. Ammo Maqotil bilan bo'lgan jangda qattiq yarador bo'lib, jon talashayotgan Avazni ular Shodmon va o'ldirmaydilar. Vaholanki, Asad bu vaziyatda Avazdan osongina qutulishlari mumkin edi. Biroq, bu ularning jangchilik a'moliga to'g'ri kelmaydi. Ular maydonda kurashib jon berishni alp uchun sharaf deb hisoblashadi. Azaldan bizning xalqimiz uchun kurashga imkoni yo'q kishi bilan kurashmoq, yoxud uning orqasidan xanjar urmoq – uyat. Shu bois, Kuntug'mishni ajdarho, Avazni devlar yengolmaydi. Chunki ular jangchiga xos tarzda haqqoniy kurashadi. Lekin shunday pahlavonlarni qulatishga qodir kuch topilgan ekanmi? Yo'q. Mardlarni, bahodirlarni hech qanday adolatli jangda yengib bo'lmaydi. Ammo o'sha asotirlarda mardlarni yiqitgan tubanlik bor. Bu haqida shoir shunday yozadi:

*Bari halok bo'lgan xiyonatlardan,
Bariga orqadan sanchilgan xanjar.
Shunday bo'lib kelgan azal-u azal
mana shu jafokash,
ko'hna Vatanda.*

Shoir o'z so'zlariga kitobxonni ishontirishni istaydi. Sofdil elatlarning asotirlari yolg'on bo'lmasligini yozadi.

*Ishongil,
hech qachon seni aldamas
sofdil elatlarning asotirlari,
birorta bahodir o'lganmas jangda,
qo'rqqoqlar o'ldirgan bahodirlarni.*

Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy. O'zbek xalqining bu kabi bahodirlari nomini soatlab sanash mumkin va barchamiz bilamizki, ulardan mustamlakachilar doim qo'rqib turgan. Ular o'z ahdida qat'iyiligi, sobitligi bilan sobiq shorro hukumatida qo'rquv uyg'otgan. Aynan ulardan qo'rqib turgan ana shu qo'rqqoqlar turli fitna, ig'vo, tuhmatlar bilan ularni "yengganlar". Ammo bahodirlarning jisman yengilishi, qo'rqqoqlarning ma'nan yengilishiga sabab bo'ladi. Ular o'z xalqi dilida, ularning izdoshi bo'lib o'sayotgan jajji bolakaylar qorachig'ida yashayveradi.

*Har gal bahodirlar yiqilar ekan,
kurakka sanchilgan nomard tig'idan.
Qayta tirilganday bo'lardi nogoh,
Har bir bolakayning qorachig'ida.*

Bu o'rinda Shavkat Rahmon shaxsiyatiga xos xususiyat, umid va kurashuvchanlik namoyon bo'ladi. U o'z xalqini "jajji bahodirlar" qutqarishiga ishonadi, yoshlarga juda katta umid bog'laydi. Shavkat Rahmon "Vatan" gazetasining 1992-yil 14-22-iyul sonida e'lon qilingan suhbatda shunday degan: "Millatimizning yaxshi o'g'illarini, qizlarini ko'rsam, kayfiyatim ko'tariladi. Garchi, millatning oyoqlariga qarab emas, millatning boshiga qarab fikrlashga o'rgangan bo'lsam ham, ba'zan ich-ichimdan o'kinchlar, g'azablar oqib keladigan paytlar ham bo'ladi. Chunki millatparvarlik baland g'oyalar va bu g'oya bugungi adabiyotimizning yetakchi mavzusiga aylanmog'i, har bir vatandoshimizda millatparvarlik tuyg'usini uyg'otmog'i zarur".

Ko'rinib turganidek, bu o'rinda shoir Vatanning umidi bo'lgan yoshlarga alohida e'tibor qaratadi, ularning nigohlarida, faoliyatida millatning taqdirini ko'radi. Mana, birgina she'rda qanchalik milliy ohang jarang sochmoqda, milliy ruh o'z aksini topmoqda. Shoir yuqorida keltirilgan she'rda o'zbek xalqiga xos bo'lgan milliy ruhni, milliy boyligimiz – dostonlar, asotirlar, ertaklar vositasida ifodalaydi.

Ertaklar Shavkat Rahmon lirikasidagi milliy ruhni ifodalovchi asosiy vosita hisoblanadi. Shoir ijodidagi "O'lmas Koshshay" she'ri uning haqiqiy iste'dodini ko'rsatib beradi. "O'lmas Koshshay" rus xalqining ertagi. Unga o'zbekona ruhni singdirish shoirdan ulkan mahorat va iste'dodni talab qiladi. Shoirning "O'lmas Koshshay kabi" she'rida jaholatga qarshi kurashgan mard yigitlar aslida,

Vatanning ozodligi uchun kurashmoqda. Mard yigitlar elning dushmanga qul bo'lmasligi uchun jang qiladi:

*O'lmas Koshshay kabi bu jaholatning
mingta kallasi bor,
vujudi – bitta.
Qarang, erinmasdan bu kasofatning
kallalarin chopar o'jar yigitlar.*

Jaholatning ildizi shu qadar ko'p va chuqur botib ketganki, qancha chopib tashlasang ham tugamaydi. Antuan de Sent Ekzyuperining "Kichkina shahzoda" ertagida baobab deb nomlanadigan xavfli bir daraxt bo'lib, sayyoraning tuprog'ida shu yovuz urug' to'lib-toshib ketgan: "Baobablarni har kuni kanda qilmay yo'q qilib turish kerak. Bo'lmasa, u butun sayyorani egallab oladi, bahaybat, qurturgan tomirlari bilan uni har tomondan chirmab, eza boshlaydi"¹. Jaholatning urug'i ham shunday. Agar har kim o'zi jaholat bilan kurashmasa, u yengiladi. Jaholat butun yer yuzini baobab kabi har tomondan chirmab, eza boshlaydi.

*Ex, o'jar yigitlar
vujud quvvatin
bu jirkanch maxluqqa sarflab netarsiz?..
Nechun ko'zlaringiz ko'rar suvratni,
Siyratning mag'ziga qachon yetarsiz?
Aylanmang jaholat tevaragida
jaholatning joni boshqa joydadir*

¹Antuan de Sent Ekzyuperi. Kichkina shahzoda. Toshkent: G'afur G'ulom. 1988. -- B.239.

*Koshshening joniday dengiz tagida
balki Zuhaldadir,
balki Oydadir.*

Ko'rinib turibdiki, she'r ramziy ma'noga ega. O'lmas Koshshay mustamlakachi sobiq sho'ro qi-yofasi. Uning mingta kallasi bor. Uning kallasini uzmoq juda dushvor. Shoir bu jaholat – jirkanch maxluq kuch sarflamoqqa ham arzimaydi, deb hisoblaydi. Shoir ikki xalq og'zaki ijodidan foydalan-gan holda o'ziga xos milliy ruh yarata oldi.

Shavkat Rahmon yana bir she'rida o'zbek xalqi-ga xos bo'lgan fazilat – mehmondo'stlik haqida to'x-taladi. O'zbek xalqi azaldan mehmondo'st xalq. Agar uyiga mehmon kelsa, iloji boricha yaxshiroq siy-lashga, uyidagi eng yaxshi uy anjomlarini mehmon uchun ishlatishga, mehmonni bahramand etishga harakat qiladi. Bir kunlik mehmon uchun bor-budi-ni to'kishga tayyor. Shavkat Rahmonning "Mehmon-do'stlik" she'rida bunga yana bir bor amin bo'lamiz:

*O'zbeklar azaldan mehmonchi eldir,
mehmon otangdan ham ulug', deydilar.
Bir kunlik mehmonga bor-yo'g'in qo'yib,
o'zlari qancha vaqt turshak yeydilar.*

Shoir mezbonlik haqida ajoyib ta'rif keltirib, keyingi mehmonning odobi haqida misralarda to'xtaladi.

*Biroq, har xil bo'lar mehmonning fe'li,
Biri so'rab kirar,
birisi – bosib.*

Xalq hikmatlaridan birida shunday deyiladi: "Mehmoning dushman bo'lganda ham hurmatini joyiga qo'y. Hatto bolta tutgan daraxt kesuvchiga ham, daraxt soya solib turadi". Mehmon kim va qanday odam bo'lishidan qat'iy nazar, u sening eshigingdan keladi. Demakki, unga izzat-ikrom ko'rsatib, hurmatini joyiga qo'yish kerak. Shavkat Rahmon aytmoqchi bo'lgan mehmonga bostirib keluvchilar, rus imperiyasi vakillari edi. Ular yurt-ga bostirib kirishdi. Mavjud hamma udumlarni o'zgartirmoqchi bo'lishdi. Xalqning ming yillardan buyon asrab kelayotgan tafakkurini zaharlashdi. Ular hatto shu darajaga borib yetishdiki, o'lgan odamga janoza o'qish ham man etildi. Bu eskilik sarqiti, deya talqin etildi.

*Uydagi tartiblar yoqmas biriga,
yoqmas tarbiyasiz bolalar xulqi.
Yalinib-yolvorib siylaganingiz,
taomil, odamlar qo'zg'atar kulgi.*

Ota-bobolarimizdan qolgan yaxshi odatlardan biri shuki, mehmon kelgan uyda o'shqirib gapla-shish, shovqin solish, uning huzurida adi-badi ay-tishish, urishib qolish u yoqda tursin, hatto kesatib ham gapirib bo'lmaydi. Oila a'zolariga, o'z bolasiga qattiq gapirish ham uyat hisoblanadi. Hatto mu-shukni "pisht" deyish, chiroqni "puflab" o'chirish ham mumkin emas. Bu she'rda ana shunday o'z-bekona odatlar tilga olinar ekan, shoir aynan o'z-bekona ruhni yemirmoqchi "mehmonlar"ni qat-tiq tanqid ostiga oladi. Mehmondo'stlik xalqining qon-qoniga singib ketgan. Ammo andishaning

otini qo'rqoq qo'yib, o'zbeklarning bu odatini sui-iste'mol qilish hech bir mehmon taomiliga to'g'ri kelmaydi. Shavkat Rahmonning juda ko'p she'rlarida faqat o'zbeklargagina xos bo'lgan jihatlar qalamga olinadi. Xususan, uning "Suv boshida" she'ri o'zbek mentalitetini yorqin aks ettirishi bilan xarakterlidir. Bu she'rga haqiqiy o'zbekona – milliy ruh singdirilgan. Ehtimol, bu she'rni boshqa millat vakili o'qisa, undagi tub ma'noni his eta olmaydi. Boisi, shoir suvning o'zbek xalqi uchun muqaddas ekanligini go'zal tarzda ifodalab beradi. Voqeani hikoya qilish tarzida boshlangan bu she'r o'quvchini butunlay o'ziga qaratib, ko'zini kitob ustiga mixlab qo'yadi, deyish mumkin.

*Saratonning ulkan oftobi
kun taftini ko'targan choqda,
hassa tutgan yo'lovchi keldi,
suv boshiga allaqayoqdan.*

Shu o'rinda, o'quvchining butun fikri bir yerga jamlanadi. Shoir nimani so'zlamochi, maqsadi nima, degan savol tafakkurida charx ura boshlaydi. Shavkat Rahmonning asl maqsadi keyingi misralarda namoyon bo'ladi:

*Ne qilarkin yo'lovchi suvga
Solarmikan hassa-tayog'in?!
Chanqog'ini bosib ketarmi,
Yuvarmikan yoki oyog'in?...
Insoflimi,
iymoni butmi,
ne qoldirar –*

*ishonchmi, g'uluv?
Eng oxirgi xonadonga ham
yetarmikan pokligicha suv?..*

Mana, shoirni tashvishga solgan narsa. Suv butun dunyo uchun hayot manbai. Suvni iflos qilish gunohi azim. Undan xalq bahramand bo'ladi. Bolalar suvga non oqizishadi. Suvga munosabat kishining qanday inson ekanligini belgilab beradi. Iymoni but, insofli inson suvni muqaddas biladi. Shoir shu bois, suv bo'yiga kelgan cholni xavotir bilan kuzatadi. Yo'lovchi chol etigini yechgan paytda shoir yuragiga g'ulg'ula tushadi. Ko'z o'ngiga, suvga chelak botirgan kelinchak, hovuchida suv ichgan bolakay va suv bo'yida yashaydigan butun boshli xalq keladi.

*Birgina shu lahza ichida
ming bir xayol boshimdan kechdi:
salqinladi yo'lovchi uzoq,
Changga botgan etigin yechdi.
Ko'z o'ngimdan o'tdi shu zamon
suvga chelak botirgan kelin,
hovuchida suv ichgan bola,
suv bo'yida yashagan elim.*

Va nihoyat, shoir ko'ngli taskin topdi:

*Mana, suvga egiladi u,
mana, to'yib bosar chanqog'in.
Etiklarin kiyar xayriyat,
Ming xayriyat, yuvmas oyog'in.*

Bu she'rga to'lig'icha milliy ruh singib ketgan, deyish mumkin. She'rni o'qir ekanmiz, ko'z o'ngimizda ariqlarida to'lib suv oqayotgan o'zbek qishloqlari namoyon bo'ladi. Shoir she'ridagi ruh bizning qalbimizga ham ko'chib o'tgandek. Aslida, bu she'rdagi ruh hech kimga begona emas. Har bir o'zbekka xos. Faqat kimdirlar shu ruhni unutgandek, shoir nazdida. Shu bois ham suvning ifloslanib qolishidan qattiq cho'chigandek ko'ringan Shavkat Rahmon, aslida, kishilar qalbidan insof, vijdon, iymon-e'tiqod kabi tuyg'ular arib qolishidan qo'rqadi. O'zbek xalq tabobatida "kinna chiqarish" degan marosim bor. Bunda bemor kishidagi dard haydaladi: qaydan kelgan bo'lsang, o'sha yerga ket, cho'llarga bor, odami yo'q eski uylarga bor, joni yo'q devorlarga, toshlarga bor, tarzida. Bu bemorni sog'ayishiga, o'zini tetik his qilishiga yordam beradi. Xalqimiz qadimda bu tabobat usuliga ishonishgan. Shavkat Rahmon xalqning ana shu eski usulidan foydalangan holda, milliy ruhni o'zida ifodalagan she'r yaratadi:

*Bag'ri yomon battollarga bor,
Qahri yomon qattollarga bor;
Qon yalagan qassoblarga bor,
So'z o'ynagan kazzoblarga bor;
Iymonidan kechganlarga bor,
Bor-yo'g'ini yechganlarga bor...*

Shoir nimani haydayapti – og'riqnimi, kulfatnimi? Bu oxirgi misralarda ayon bo'ladi:

*Nega menga kelasan, ey dard,
Nega menga kelasan, ey g'am!*

Shoir o'zidan dardni haydayapti. U boshqalar ko'ra olmaydigan dunyoda qancha yomonlar bor, so'z o'ynagan kazzoblar imonidan kechganlar bor, biroq, dard nega shoirni tanlaydi? Bu bejiz emas. Chunki dard-u g'amni ko'radi, boshqalar sezmagani g'amni tuyadi. Buning sababchisi uning yuragi. Uning yuragi nozik, nohaqlikka e'tibor qilmaydigan, adolatsizlikka ko'z yumib keta oladigan "immunitet"ga ega emas. Shu bois, har bir nohaqlik, adolatsizlik uning yuragini betob qiladi. Shoir xalqning eski marosimidan foydalangan holda qalbidagi dardni haydashga intiladi.

Shavkat Rahmonning milliy ruh yorqin aks etgan yana bir she'ri "Xirgoyi" deb ataladi. She'rning nomidayoq milliylik aks etgandek, nazdimda. Bu she'r haqida Otajon Norov quyidagi fikrlarni keltiradi: "Shoir she'rlarida Shavkatona musiqiylik bor. Ohang bor. Buni boshqacha xirgoyi qilish aslo mumkin emas. Qanday tug'ilsa, shundayligicha qabul qilish lozim"¹. Chindan ham bu she'r faqatgina Shavkat Rahmonga tegishli bo'lgan, boshqacha kuylash mumkin bo'lmagan xirgoyi. "Xirgoyi" so'ziga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha izoh beriladi: "Xirgoyi – past ovoz bilan aytiladigan ashula"². "Xirgoyi" bu shoirning ich-ichidan chiqayotgan dardi, isyoni namunasi, deyishimiz mumkin. Aynan shu ichki ovozda kuchli isyon, qattiq tanqid va achchiq kesatish yotadi.

¹ Uyg'oq vijdon kuychisi. (Xursandbek To'liboyev Otajon Norov bilan suhbat)

² O'zbek tilining lug'ati. 4-jild. Toshkent: -B. 400.

*Hammamiz quyoshda kuygan jizzamiz
Qachon tiz cho 'kuvdik,
hamon izzamiz.
Sirqirab og'riydi shishgan tizzamiz
o'rindan ozgina tursak, maylimu?*

Ulug'bek Hamdam Shavkat Rahmon lirikasiga to'xtalar ekan, o'z maqolasiga "Shoir – tuzalmas haqiqatparast" deb nom beradi. Bu bejiz emas. Boisi, Shavkat Rahmon xalq dardi bilan yonib yashaydi. Ikkiyuzlamachilik, nohaqlik, qo'rqqoqlikdan qattiq nafratlanadi. Shu bois, mustamlaka tuzumiga nafratini bildirishda shoir xirgoyi bilan past ovozda tuyg'ularini bildirish bilan cheklanib qolishi aslo mumkin emas. Bu fikrimizga uning "Giryaya" she'ri misol bo'la oladi. Giryaya turkiy xalqlarga, jumladan, o'zbek xalqiga xos tushuncha bo'lib, bu so'zga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "yig'i qo'shig'i" deya izoh beriladi. Unda g'am, dard-alam, ichki iztiroblar mujassam. Giryada inson dardlarini baland ovozda aytib, faryod solib yig'laydi. Insonning bor faryodi shu qo'shiqda kuylanadi. Demak, shoir Shavkat Rahmonning Xirgoyisi – ichki dardlari, ichki ovozi endi tashqariga otilib chiqadi, kuchli faryodga – giryaga aylanadi.

*Bu osmon osmonmi,
temir pardami,
bu yog'du sinchlari tizilgan dormi?
Munchalar egildi qora gardani...
juvonmard bo'lgurlar,
jo'marding bormi?!*

Shavkat Rahmon lirikasida milliy ruh – milliy vositalar, milliy an'analar chambarchasligida qad ko'taradi. Shu bois, Shavkat Rahmonning har bir she'ridan o'zbek xalqiga, uning vakili bo'lmish, o'zbek shoiriga xos milliy ruhni, milliy ovozni topishimiz mumkin. Uning lirikasi o'zbek xalq og'zaki ijodidan: ertaklar, dostonlar, asotirlardan, milliy urf-odatlardan oziqlanadi. Demakki, shoir she'riyati ana shu ozuqa energiyasi vositasida harakatlanishi tabiiy hol.

Shavkat Rahmon "Avtobusdagi o'ylar" she'rida "turkona hovlilar"da yashayotgan odamlarga nazar tashlaydi, eshiklarning oldida teraklardan ko'ra majnuntollarning ko'pligini ko'radi va shu ikki daraxtga ham ramziy ma'no yuklaydi. U daraxtlarni o'z millatdoshlariga o'xshatadi:

*Turkona hovlilar kunga qaragan,
achchiq mevasidan shirin boli ko'p.
Ko'rimsiz eshiklar mangu yopilmas,
teragidan ko'ra, majnuntoli ko'p...*

Bu o'rinda terak va majnuntol ramz. Go'yo shoirning millatdoshlarining majnuntol kabi qaddi egilgan. Ularning ichida qaddini terak kabi tik ko'tarib yuradigan odamlar juda kam.

*Sabr daraxtiday o'sgan odamlar –
Saksovul singari chidamli, chayir,
yerga botib ketgan bahodirlarday
kunlarga qaraydi
siniq iljayib.*

Shoir siniq iljaygan, ko'ngli kemptik odamlarni "sabr daraxti"ga, saksovulga, yerga botib ketgan bahodirlarga o'xshatadi. Shu tarzda u odamlar ichidan "butun bir odamni" izlaydi, ammo qarashlari kalta odamning zarralariga duch keladi. Bu o'xshatishlar shoir she'riyatidagi asosiy usullardan biridir. Shu o'rinda aytish joizki, Rauf Parfi ham "Turkiston yodi" she'rida "sabr daraxti" iborasini qo'llaydi. Shavkat Rahmon she'rida bu misra millatdoshlariga nisbatan ishlatilgan bo'lsa, Rauf Parfi bu so'zni Turkiston o'lkasiga nisbatan qo'llaydi. Har ikki holda ham bu ibora yurt yoki vatandoshga bo'lgan qayg'u, hasrat ma'nolarida qo'llanilgan. Bu o'rinda Shavkat Rahmon va Rauf Parfi oralarida yaqinlik kuzatiladi. Bu yaqinlik boshqa she'rlarda ham davom etadi. O'zgaralar shon-u shuhrat xayoli bilan band bo'lgan bir paytda shoir nigohini bahaybat darddan uzolmaydi, yetimlar faryodi daraxtdek xayolida chayqaladi. Ammo u yolg'iz. Bunday xo'rlikdan shoirning zulfiqor ruhi darveshga aylanadi. Shu bois, endi u Xudoga munojot qiladi. Shoir g'ami ilohiy g'am tomon siljiy boshlaydi. Endi shoir "Munojot" deb nomlangan bir she'rida dunyoning mavjud tartibotlaridan uning ko'ngli sira to'lmasligini yozadi. Go'yo bu she'r "Xirgoyi" va "Girya"ning mantiqiy davomidek yangraydi. "Girya"da shoir Xudoga, "Nega meni bunchalar yolg'iz yaratding", deb munojot qilgani bejiz emas. Chunki odamzod to'la komil bo'lmagan olamda shoir ko'ngli to'lishi mumkin emas. Shu bois, u o'z ko'nglini qontalash qilib bo'lsa-da, o'zga ko'ngillarga yetib bormoqqa, ularni nafsning tashvishlaridan bir zumga bo'lsa-da qutqarmoqqa, yuksak a'mollar haqida o'ylashga majbur etmoqqa urinadi.

*Faqat ishq...
Faqat ishq...
Boshqasi sarob,
Boshqasi shamolning oniy suroni,*

deb yozadi shoir "Munojot" she'rida. Chindan-da, o'zini tanigan, qalbini taftish qila oladigan odam uchun ishqdan boshqasi, ko'ngilning yuksak intilishlaridan o'zgasi o'tkinchi va omonat. Ammo hamisha qadriyatni o'tkinchi havaslarga almashtirishga hozir bo'lgan kaslar sanoqsiz. Bundaylar haqida: "...tafakkur sasigan, ruhlari so'ngan", deyish adolatdandir"¹.

Shavkat Rahmon Xudoga ishq so'rab murojaat qilgan bir kezda, Rauf Parfi Ollohdan imon berishini so'rab unga murojaat qiladi:

*Imon ber ruhimga, jismimga jon ber,
Loyimni qorishtir, poklab ber menga.
Ojiz tomirimga pokiza qon ber,
Ravshan qil, qoramni oqlab ber menga.
Oxirat ilmidan qil meni ogoh,
Murodim shamini so'ndirma, Olloh.*

Shu o'rinda, ikkala shoirga xos bo'lgan o'xshash ruh sadolari yangraydi, ko'ngilni to'lqinlantiradi. Biri – pokiza ishq so'rasa, biri – pokiza iymon, toza qon, toza jon so'raydi. Ularga hamohang tarzda Usmon Azim esa Majnunga aylanishni ixtiyor etadi. Uning joniga ham Ollohdan ayrolik o't yoqmoqda. O'zgaralar dunyo tashvishlari bilan band

¹ Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. – Toshkent: Yangi asr avlodi. 2004. – B.243.

bo'lgan bir paytda, u maktubini yozayotir, uni yozib tugatayotir. Ya'ni yashayotir, yashashni yakunlashga shoshayotir.

*Men – Majnun
O'rtanib yozayapman xat,
Ayriliq olovi jonda qo'qiydi.
O'zga dardlar bilan garchi dunyo band –
Yelkamdand cho'zilib xatni o'qiydi.
Oyog'ini artmay o'tayotir vaqt
Ko'ksimdan. Chidamoq – eng ulug'vor ish.
Xatni yozib bo'ldim. Hamma ishim taxt,
Qolgani bor-yo'g'i – jonni topshirish.*

Shavkat Rahmon lirikasidagi milliy ruh endi Muhammad Yusuf ijodiga ko'chadi. Shavkat Rahmon:

*Mendan nima qolur,
Abadiy nurlar
Barq urib yashagan dunyo tomonda?
Urinib - surinib sira to'lmagan
Bir ko'ngil qoladi – Qolsa ham mendan,
deb yozgan bo'lsa, Muhammad Yusuf:
Mendan nima qolur:
Ikki misra she'r,
Ikki sandiq kitob, bir uyum tuproq,
Odamlar ortimdan nima desa der,
Men seni o'ylayman o'zimdan ko'proq –
Lola, lolajonim, lolaqizg'aldoq.*

Chindan ham har ikkala shoirdan toza ko'ngil, bir sandiq kitob-u olovli misralar qoldi. Bu shoir-

larning barchasi deyarli bir xil ruh bilan yashadi va ijod qildi. Milliy ruh Shavkat Rahmonning nafaqat o'z she'rlarida va hatto tarjimalarida ham namoyon bo'ladi. Bu o'rinda, uning Lorika she'riyati bo'yicha qilgan tarjimalari ahamiyatlidir. Milliy ruh nima? Shavkat Rahmon she'riyati va shaxsiyati uchun milliy ruh – Vatanparvarlik, xalqparvarlik, haqiqatgo'ylik. Lorika she'riyatini Shavkat Rahmon tarjimasida orqali o'qir ekanmiz, buyuk ispan yozuvchisi she'riyatida ham, Vatanparvarlik, Xalqparvarlik, Haqiqatgo'ylik eng asosiy o'rinda turganiga guvoh bo'lamiz. Har ikki shoir ijodida bu tuyg'ular ustuvor. Demakki, ularning milliy ruhida ham yaqinlik, hamohanglik, o'xshashlik mavjud. Ko'rinib turganidek, Shavkat Rahmon ijodiga, ruhiga o'xshashlik nafaqat o'zbek adabiyotida, balki jahon adabiyotida ham uchraydi. Shoir bekorga tarjima uchun Lorika she'rlarini tanlamagani, bekorga Lorika she'riyatiga qiziqmagani yaqqol ayon. Boisi, bu ikki shoir ruhiyatida, she'rlari ovozida yaqinlik, o'xshashlik nihoyatda kuchli. Lorika she'riyati xususida Shavkat Rahmon fikr bildirar ekan, "Lorika she'riyati meni Vatan va millatni sevishga o'rgatdi"¹, – deydi. Federiko Lorkaning betakror ovozi bejiz Shavkat Rahmon va tarjimasida o'zbek tilida jaranglamagan. Avvalo, ularning she'r shoirlik mas'uliyati bobidagi e'tiqodlari hamohang edi. "Eng qayg'uli shodlik" kitobida yozgan so'zboshisida Shavkat Rahmon Lorkaning quyidagi so'zlarini alohida qayd etgan: "Yaxshiyamki, san'at san'at uchun degan g'oyaning mag'zi puch, aks holda, bundan-da

¹ Federiko Garsia Lorika. Eng qayg'uli shodlik. Toshkent: G'afur G'ulom. 1989. –B.4

shafqatsiz g'oya bo'lmasdi. Bu soxta san'atning o'zi-gagina daxldor. Sof san'atga birorta ham vijdonli odam ishonmaydi. Ziddiyatli davrimizda ijodkor xalq kulsa kulib, yig'lasa yig'lamog'i, o'z binafshalaridan VOZ kechmog'i, beligacha botqoqqa botib bo'lsa ham binafsha izlayotganlarga ko'maklashmog'i lozim"¹. Bu o'rinda binafsha nima? Cho'lpon ijodida binafsha – ezilgan, haq-huquqlari toptalgan yurt timsoli. Lorkada esa ozodlik, haqiqat, erk, adolat – xuddi shu kabi tuyg'ular timsolidir, ehtimol. Bu tuyg'ular Shavkat Rahmonga ham tegishli. Bunday tuyg'ular faqat Lorkaning emas, Shavkat Rahmonning ham ijodiy va hayotiy matlabi edi. Asl tarjimon o'zi tarjima qilishni istagan shoirni ko'r-ko'rona tanlamaydi. O'zining ijodiy kechinmalari va hayotiy matlablariga ko'ra tanlaydi.

Nodir Jonuzoq o'zining "Qalb qadrtoni" maqolasida Shavkat Rahmonning Lorka she'riyati bo'yicha qilgan tarjimalari haqida to'xtalib, quyidagicha fikrlar bildiradi: "So'zlarni qayraylik, obdon toblaylik..." ko'z oldimizda so'zni qilichday qayrayotgan shoir qiyofasi namoyon bo'ladi. Shoir faqat o'z she'rlarida emas, balki tarjimalarida ham so'zlarni toblaydi. Xususan, Federiko Garsia Lorkaning "G'ar" nomli she'ridagi ushbu misralarni har gal o'qirkanman, beixtiyor hayratlanaman:

*Yaltir - yultur, kofur badan –
nard gulidan foram, nafis –
Shandir Shabiy oynaklarda
suzgan oyning nuri kabi.*

¹ Federiko Garsia Lorka. Eng qayg'uli shodlik. Toshkent: G'afur G'ulom. 1989. –B.5

"Kofur badan", "nard guli", "foram", "shabiy oynaklar" kabi so'zlar, iboralar – o'zimizniki, biroq, tan olaylik, omma tugul shoirlar, so'z ustalarining ham nazaridan chetroqda turadi. Shoir, aynan, ana shunday so'zlarni terib oladi va Lorka she'riyatiga xos bo'lgan sirlilik, fusunkorlikni paydo qiladi"¹. Nodir Jonuzoq bu maqolada Shavkat Rahmon tarjimalarini boshqa rus she'riyatidagi tarjimalar bilan o'zaro qiyoslaydi va quyidagicha xulosaga keladi: "Umuman olganda, qiyosiy tarjima – alohida, katta ish. Buning uchun tarjimon o'zbek, rus va ispan tilini mukammal bilishi va ustiga-ustak, nozik poetik didga ham ega bo'lishi lozim. Lekin, nima bo'lganda ham, bir narsani tan olish kerak, she'rning o'zbekcha tarjimasida tabiiy ohangdorlik, musiqiylik kuchliroq. Misralar ispan romanslari kabi o'ynoqlab oqadi. Va, beixtiyor tilingizga o'rnashib qoladi. O'zingiz bilib-bilmay xirgoyi qila boshlaysiz: "Shandir shabiy oynaklarda..."².

Shavkat Rahmon va Lorka she'riyatidagi ruhda, obrazlar tizimida, fikrlashda kuchli yaqinlikni, Lorka va Shavkat Rahmonning bir nechta she'rlari qiyofasi orqali aniq ko'rib olish mumkin. Shavkat Rahmon "Ovozim" she'rida shunday yozadi:

*Agar yetti qavat yerning qa'rida
yotsam-da, larzaga solib havoni,
elimning yuragin
topar baribir
jismimni kuydirib uchgan ovozim.*

¹ Nodir Jonuzoq. Qalb qadrtoni. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/nodir-jonuzoq-qalb-qadrtoni-2.html>

² Nodir Jonuzoq. Qalb qadrtoni. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/nodir-jonuzoq-qalb-qadrtoni-2.html>

Ha, shoir hattoki yetti qavat yerning tagida ham yurtini, elini kuylaydi. Uning ovozini sindirish aslo mumkin emas. Aynan shu maqsad, shu istak Lorkada ham mavjud.

*Boshlanyapti
gitar nolasi,
Sinayapti
tong piyolasi.
Boshlanyapti
gitar nolasi
O, kutmagin undan
Sukutni!
So'ramagin undan
Sukutni!*

Gitara bu – shoir yuragi. U haqiqatni, adolatni, hurlikni kuylaydi. Hech qachon hech kim asl shoirni yo'lidan qaytara olmaydi. Shu bois unga cheklov, taqiqlar qo'yish nojoiz. Gitaradan – shoir ko'ngli-dan sukutni talab qilib bo'lmaydi.

Lorka va Shavkat Rahmon ikki millat, ikki davr farzandi. Ammo ularning tanlagan yo'li, tayangan tamoyili, ruhi yaqin. Shu bois, hatto obrazlar o'rtasida ham yaqinlik, o'xshashlik bor. Shavkat Rahmon ijodida eng ko'p uchrovchi daryo-yu dengiz, shamol kabi obrazlar Lorka she'riyatida ham go'zal aks etadi.

*Tinim bilmay yig'lar gitara,
Yig'laganday daryolarda suv,
Yig'laganday dengizda shamol,
Sukut so'rab yalinma endi.*

Shavkat Rahmon lirikasida tabiat asosiy o'rin-da majoziy ma'no ifodalovchi vosita hisoblanadi. Bu holat Lorka ijodida ham uchraydi. Bu haqda Shavkat Rahmon “Eng qayg'uli shodlik” kitobining so'zboshisida shunday yozadi: “Lorka ijodida tabiatning har bir unsuri hayot va mamot oralig'ida titrab turgan dardchil yurakka hamdardlik qiladi. Ruhiyatiga moslashadi. Inson iztirobining bu qadar yuksaltirilishi shoir dunyoqarashida odamiylikning nechog'ligidan dalolat”¹. Demak, Lorka ijodida ham tabiat fikrlarni yetkazib beruvchi vosita. Va shu o'rinda, Shavkat Rahmon Lorka ijodida yana quyidagicha fikrlar bildiradi: Lorka ham yozma, ham og'zaki madaniyatning ijobiy fazilatlarini o'z ijodida omuxta qilgan. Yozma madaniyatdan jismlar va tartibsiz tuyg'ularning dunyosini uyg'unlashgan dunyo sifatida tasavvurlashni o'rgan-gan bo'lsa, xalq og'zaki madaniyati ya'ni ispan xalq qo'shiqlaridan tabiatning har bir unsurini jonlantirish xususiyatini bo'lmish o'zlashtirgan. Bundan tashqari ispan xalq qo'shiqlariga xos yana bir xususiyat – ranglar va o'simliklar timsolidan juda ham unumli foydalangan. Har ikkala shoirda ham xalq og'zaki ijodi ta'siri ko'zga tashlanadi. Shavkat Rahmon va Lorka ijodidagi bir qancha o'zaro yaqin obrazlarni ko'rib chiqamiz:

Lorka:
*Qay manzilga boradi cheksiz
so'qmoqlardan osmon sayyohi?
Gijinglagan oppoq tulporda*

¹ Federiko Garsia Lorka. Eng qayg'uli shodlik. T.: G'afur G'ulom. 1989. – B.4.

*borar tongni kutib olgani.
Yayrab - yayrab o'ynang, bolalar,
Kulgingizni soching shamolga!*

Shavkat Rahmon:
*Bolalarning ko'zlari kerak,
juda kerak hayratli chog'lar –
bu dunyoning bor go'zalligin
faqat so'zlar u qora ko'zlar.*

Ikki ijodkorda ham bir xil obraz – bolalar obrazini. Har ikkala shoirida ham bolalar dunyoning, kelajakning egalari. Ikki ijodkor ham ularning baxtli bo'lishini, yashnab-quvnab yashashini chin dildan istaydi.

Lorka:
*Quyosh botib ketdi. Og'ochlar
haykallarday xayolchan.
Yig'ilgan don.
Charxpalaklar
xomush tin olgan.*
Shavkat Rahmon:
*G'ichir-g'ichir,
g'ichir- g'ichir,
aylanasan joning halak,
aylanasan, azal- abad,
charxpalak,
charxpalak.*

Ko'rinib turganidek, har ikki ijodkorda obrazlar tizimi nihoyatda o'xshash va yaqin. Garchand ular boshqa boshqa millat vakillari bo'lsa-da,

ammo ularni bog'lab turuvchi bir jihat bor. Bu – ularga tegishli ruh. Aynan shu ruh dunyoning qaysi burchagida bo'lmasin, bir-birini topishga va bir-biriga ta'sir ko'rsatishga qodir.

XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlaridagi o'zbek adabiy jarayonida Shavkat Rahmon fenomeni alohida e'tiborga molikdir. Shoirning she'riyati mustaqillik arafasi va undan keyingi davrda vujudga kelgan murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni, jamiyat mentalitetidagi keskin burilishlarni, inson ruhiyatidagi larzalarni o'zida mujassamlashtiradi. U lirikaning eng nozik qatlamlaridan biri – jamiyat va shaxs munosabatlari, vijdon va burch, xalqning taqdiri, ruhiy uyg'onish va erkinlik tamoyillarini o'ziga xos poetik talqin qilgan ijodkor sifatida namoyon bo'ladi. Shavkat Rahmonning lirikasi o'zbek she'riyatida ijtimoiy ohangning yangilanishiga, yangi poetik shakl va ma'no qatlamlarining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Uning she'rlarida tarixiy xotira, milliy ruhiyat, ijtimoiy adolat izlanishlari, xalqning ruhiy dunyosi va o'zligini anglash jarayonlari teran badiiy umumlashtirilgan. Aslida, shoirning tarbiyasi milliy ruhda, xalqona tafakkur zaminida shakllangan bo'lsa-da, ijodiy shakllanish jarayonida sovet mafkurasi hukmron bo'lgan adabiy maktabning ham ta'siri seziladi.

- ✓ 70–80-yillar adabiy muhiti quyidagi xususiyatlar bilan belgilanadi:
- ✓ badiiy asarlarda mafkuraviy bo'yoqning kuchliligi;
- ✓ lirik qahramonning faolligi nazorat ostida saqlanishi;

✓ insonning ruhiy haqiqatini erkin ifoda etish imkoniyatining cheklanishi, yopiq mavzularning mavjudligi.

Shunday bo'lsa-da, aynan shu davrda ijod qilgan Shavkat Rahmon, Rauf Parfi, O'tkir Hoshimov, Erkin A'zam kabi ijodkorlar badiiy tilda ezgulik, vatanparvarlik, erkinlik ruhini o'zgacha poetik shakllarda ifodaladilar. Shavkat Rahmonning ilk she'rlari insonning ichki kechinmalari, tabiat manzaralari, hayot falsafasi bilan yo'g'rilgan bo'lib, keyinchalik ular tobora kuchli ijtimoiy ohangga ega bo'la boshladi. Shavkat Rahmon lirik qahramoni – o'z xalqining dard-u quvonchini o'z qalbidan o'tkazuvchi, jamiyatning ruhiy holatiga befarq bo'lmagan shaxs obrazidir. Shoir uchun xalq taqdiri – shaxs taqdiri bilan uyg'un tushuncha. Uning she'rlarida uchraydigan asosiy motivlar:

- Vatan dardi
- Erkinlik istagi
- Jamiyatning ruhiy uyg'onishi zarurati
- Milliy o'zlikni anglash
- Ma'naviy inqiroz va uning ildizlari.

Shavkat Rahmon o'zbek lirikasi oldida ijtimoiylikning yangi bosqichini yaratgan ijodkor sifatida baholanadi. Shoirning ijtimoiy ohang bilan yo'g'rilgan she'rlari ikki asosiy manbadan oziq oladi: Davrning iqtisodiy va siyosiy ziddiyatlari sobiq tuzumning adolatsizliklari, jamiyatning qo'rquv ostida yashashi, so'z erkinligining yo'qligi, ma'naviy bo'shliq. Shaxsning ichki ruhiy holati, vijdon azobi, jamiyat oldidagi mas'uliyat, haqiqatga chanqoqlik, shoirlik burchi. Shavkat Rahmonning ijtimoiy ohangdagi she'rlari faqat tanqid ruhida emas, balki

xalqning ko'nglidagi og'riqni ifodalash orqali ruhiy davolash, ma'naviy uyg'otish vazifasini ham bajaradi. Shavkat Rahmon she'riyatida lirik qahramon jamiyatdan ajralgan emas, aksincha: jamiyatning muammolarini o'z qalbidan o'tkazadi: tarixiy jarayonlarga nisbatan o'z nuqtayi nazarini bildiradi: xalqning azobini, hasratini, orzu-istaklarini tilga oladi: haqiqatni aytishga bo'lgan intilishidan qaytmaydi. Uning "So'roq", "Men nechun o'lmadim?", "Ko'chalar", "Quyosh ham o'zgaribdi", "Meni ham qo'yinglar qatorga" kabi she'rlari shoirning fuqaroviy pozitsiyasini yaqqol ifodalaydi. Shavkat Rahmon lirikasi ijtimoiy ohangni quyidagi poetik vositalar orqali kuchaytiradi: o'tkir, metaforik tasvirlar, simbolik obrazlar, aforizmlarga yaqin misralar, xalqona iboralardan mahorat bilan foydalanish, ramziy manzaralar orqali ijtimoiy haqiqatni berish. Masalan, uning "Ko'chalar" she'rida jamiyatdagi ruhiy bo'shliq, odamlar orasidagi sovuqlik, ma'naviy tushkunlik o'ta kuchli tasvirlangan.

Shavkat Rahmon ijtimoiy ohangidagi she'rlarda ruhiy uyg'onish g'oyasini doimiy kuylaydi. U buni ba'zan bevosita, ba'zan ramzlar orqali beradi. "Men nechun o'lmadim?" she'ri ko'plab tadqiqotchilar tomonidan shoir ijodidagi keskin burilish sifatida baholanadi. Bu she'r ikki qatlamli ma'noga ega: shaxsning o'ziga bergan savoli, jamiyatga berilgan keskin tanqid. She'rda o'lim – taslim bo'lish, hayot – kurash ramzi sifatida talqin qilinadi. Shoir she'riyatida quyosh, shamol, yer, suv kabi obrazlar ko'pincha ramziy ma'noda qo'llanadi. Masalan:

Quyosh – adolat, haqiqat, uyg'onish ramzi
Yomg'ir – poklanish

Shamol – o‘zgarish
Tuproq – Vatan, xalq ruhi.

Bu obrazlar yordamida shoir jamiyatdagi o‘zgarishlarga ishora qiladi.

Shavkat Rahmon she‘riyatida shahar (Toshkent) ko‘p hollarda ma‘naviy iztirob markazi sifatida talqin etiladi. “Ko‘chalar”, “Tun”, “Shahar” kabi she‘rlarda: shaxsiy yolg‘izlik, ma‘naviy sovuqlik, odamlar orasidagi uzoqlik, o‘tmish va hozirning ziddiyati kuchli badiiy vositalar orqali tasvirlanadi. Shoirning barcha asosiy she‘rlarida bir asosiy g‘oya takrorlanadi: “Inson jamiyat uchun emas, jamiyat inson uchun yaratilgan”.

Uning “Meni ham qo‘yinglar qatorga” she‘ri shundandir. Jamiyatning me‘yordan ortiq tartiblari inson qalbini toraytirayotganini shoir ochiq ko‘rsatadi. Shavkat Rahmon mustaqillikka yetaklagan ruhiy jarayonlarning eng faol ishtirokchilaridan biridir. Uning she‘rlari: ruhiy uyg‘onish, milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotiraga qaytish, ma‘naviy tiklanish, adolat istagi g‘oyalarini targ‘ib qildi. Uning ijtimoiy ohanglari ko‘pincha erkin fikr, erkin so‘z va erkin xalq tushunchalari bilan bog‘lanadi. Shavkat Rahmon uchun erkinlik: faqat siyosiy emas, ruhiy holat, vijdon erkinligi, fikr mustaqilligi, inson sha‘ni. Shavkat Rahmonning 80-yillarda yozilgan ko‘plab she‘rlari xalqni mustaqillikka ruhiy tayyorlagan asarlar sanaladi. U o‘z she‘rlari bilan jamiyatda: o‘zgarish istagini, uyg‘onish g‘oyasini, milliy o‘zlikni anglashni kuchaytirgan.

Shoir metaforalardan juda keng foydalanadi. Uning metaforalari:

Yangicha, qatlamli, falsafiy, o‘quvchini mushohadaga chorlaydi. Masalan:

*“Ko‘zlarimdan osmonga bir yulduz qulab tushdi..
Bu – o‘zimdan ajralgan umid edi”.*

Bu metaforada umidning so‘nishi – jamiyatning ruhiy tushkunligi bilan bog‘lanadi. Ramzlar shoir ijodining asosiy tayanchlaridan biridir. U o‘quvchini to‘g‘ridan-to‘g‘ri gapirishdan ko‘ra, ramz orqali fikrni chuqurlashtiradi. Ko‘hna shahar – eskirgan tuzum, Yorug‘lik – haqiqat, Suku-nat – qo‘rquv, Tun – zulm davri. Shavkat Rahmon misralari: qisqa, zarbli, aforizmga o‘xshash, kuchli urg‘uga ega. Bu unsurlar uning she‘riyatini o‘qiladigan, yodda qoladigan, ta‘sirchan qiladi. Shavkat Rahmon lirikasi o‘zbek she‘riyatida ijtimoiy ohangning yangilanishida katta qadam bo‘ldi. Uning she‘rlari: jamiyatning ruhiy o‘zgarishlarini aks ettiradi, ma‘naviy inqiroz sabablarini tahlil qiladi, xalqni uyg‘onishga, o‘zligini anglashga undaydi, shaxs va jamiyat ziddiyatini yorqin talqin qiladi, milliy uyg‘onish jarayonining badiiy ifodasiga aylanadi. Shoirning ijtimoiy lirikasida obrazlar tizimi, ramzlar, poetik sintaksis o‘ziga xos tarzda qo‘llanib, o‘zbek adabiy tafakkurida yangi bosqich yaratdi. Uning ijodi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, jamiyatning ma‘naviy holatini anglashda, erkin fikr va so‘zning qadriga yetishda muhim adabiy manbaga aylanib turibdi.

III BOB

SHAVKAT RAHMON SHE'RIYATIDAGI "UYG'OTISH" TAMOYILI

Shavkat Rahmonga "jangchi shoir" deb ta'rif berishadi. Boisi, uning she'rlarida kuchli isyon, qora illatlarga qarshi katta nafrat qo'shini bor. U haqiqatni jangchidek kuylaydi, kuylabgina qolmay, himoya qiladi. Shavkat Rahmon o'z she'riyati orqali juda ko'p ezgu jihatlar himoyachisiga aylangan. Ammo shoirning o'zi jangchi bo'lishni, jangovar she'rlar yozishni istaganmikan? Bu savollarimizga uning "Iqror" she'ridan javob topishimiz mumkin:

*Rubobiy she'r yozsam...
qaytsam bir nafas...
Hamisha musaffo chashmani ko'rsam,
qoraygan cho'qqilar qoriga qarab,
bir nafas xayolchan o'smirga do'nsam.*

Shoir rubobiy she'r yozishni, faqat dunyoda musaffo osmon borligini ilg'ay oladigan o'smirga aylanib qolishni orzu qiladi.

XX asr badiiy tafakkur mevasidir. Chunki bu asrga kelgandagina tamaddun o'zining yangi, misli ko'rilmagan bosqichiga qadam bosdi: texnika rivojlandi va hayotga tatbiq etildi, atom kashf etildi, inson ilk marta kosmosga parvoz qildi, kompyuter ixtiro qilindi va bularning bari odam bilan olam hokazo o'rtasidagi munosabatga, uning tafakkuri-

ga, dunyoqarashiga ta'sir qildi. Natijada, ijtimoiylashuv jarayoni tezlashdi va ijtimoiy muammo jamiyatning har bir a'zosi uchun ahamiyat kasb etdi. Shu tarzda she'riyat ham, xususan, XX asr o'zbek she'riyati ham qaysidir ma'noda ijtimoiylashdi. Binobarin, Shavkat Rahmon yuqorida ko'rib o'tganimizdek, rubobiy she'rlar yozishga chog'lansada, har doim ham buning uddasidan chiqa olmay, ko'pincha ijtimoiy mavzularga qo'l urishga majbur bo'ldi. Oqibat shu bo'ldiki, hayotning shirin va adolatli bo'lishiga xalaqit berayotgan har qanday narsa va kimsalar she'riyatga ko'chib o'tdi, shoirning dushmanlari ko'paydi:

*Dushmanim ko'paydi,
Hatto, o'liklar
Bahorni sog'ingan qutlug' oylari,
Xilvatda yig'ilib yurdi sho'rliklar
Changalda bo'hton-u, ig'vo loylari...*

Biroq, sirasini aytganda, she'riyatga aynan shu xil kayfiyatning kirib kelishi poeziya deb atalmish yuksak olamni qaysidir ma'noda oyog'idan tortib yerga tushirib qo'ydi. Natijada, biz ko'pincha she'r o'qirkanmiz, qalban yuksalish va poklanish o'rniga turmushning deyarli har kuni o'zimiz duch kelayotgan chirkin nuqtalariga takror ro'para kelib qiynalamiz. Lekin ayni shu chog'da shoirdan o'pkalash ham noto'g'ri bo'lar, chunki unda simobdek qaynab turgan ijtimoiy mavzularni qo'yib, gul va bulbul dunyosiga sho'ng'ib ketolmay qiynalayotgandir, degan o'ylar ham boshingda aylanadi. Muhimi, Shavkat Rahmonga ijtimoiy mavzuni shaxsiy

mavzu sifatida yoki buning aksi: o'z shaxsiy dardini ijtimoiy dard darajasida kuylay olish baxti nasib etgan. Ya'ni u ko'pning dardini o'z ko'ngil prizmasidan o'tkazib, uni shaxsiylashtira bilgan. Natijada, umumdard shaxs dardiga, "men" dardiga aylangan. Ko'rinib turganidek, jamiyat Shavkat Rahmon lirikasiga shoirning o'zi istamagan holida ham ta'sir o'tkaza olgan. Aslida esa shoir "Iqror" she'rida ta'kidlaganidek, o'smirligiga do'nmoqchi, nafaqat o'smirligiga do'nmoqchi, ayni damda, yana u rubobiy she'rlar yozish imkoniga, gunafsha atirli tansiq tuyg'ularga ham qaytmoqchi. Chunki aslida shoirning tabiiy holidan – ko'ngil istagidan kelib chiqadigan she'rlar aynan rubobiy she'rlar edi. Biroq, u:

*Yashil shajar edim...
Qandoq sog'indim...
Ko'zimni yashnatsa rubobiy ranglar.
Qaysi bir dunyoga buncha og'rindim,
Dilimni qaritdi besamar janglar, –*

deydi azoblanib. Ha. Mana, Shavkat Rahmonni boshqa ko'ylarga sudrab ketgan sabab! Uni o'z holiga qo'ymagan, rubobiy she'rlar yozdirmagan kuch! Uni shoir "besamar janglar", deb atamoqda. Nima edi o'zi bu janglar?

*Men jangchi emasdim,
Men shoir edim,
Nihoyat shoirdan ko'ra zobitman,
Har nafas musulmon millatni dedim,
Nafsiga kuyganlar keldi oqibat.*

*Haromni xush ko'rgan maslakfurushlar
Zig'irday himmatin qilganda minnat,
Yaproqday sarg'aydim buyuk urushda
Musulmon yo'q edi,
Yo'q edi millat.*

Darhaqiqat, Shavkat Rahmon jangchi bo'lib emas, shoir bo'lib tug'ilgandi. Lekin hayot uni shunday chig'iriqlardan o'tishga majbur qildiki, natijada, shoirning o'z tili bilan aytganda "nihoyat shoirdan ko'ra, zobitroq" bo'lib qoldi. Chunki haqiqiy shoir o'z davridan chekinib, butunlay uzlatda umrguzaronlik qila olmaydi. Bunga uning aynan shoirona qalbi, vatanparvarlik tuyg'ulari bilan limo-lim vijdoni izn bermaydi. Oqibat, atrof bilan yonma-yon yurishga majbur qolgan shoir atrofni bor bo'y-basti bilan ko'ra boshlaydi. U haromdan hazar qilmaydigan maslakfurushlarga duch keladi. Yolg'on va fisq-u fasodni hayotining a'moliga aylantirgan manfaatparastlarni ko'radi, maqtozni xush ko'ruvchi betayin kimsalarni, Vatanni sotib kun ko'rishga hozir vatanfurushlarni, xoinlarni, qo'rzoq imonsizlarni... ko'radi. Bularning hammasi shoirning hassos qalbini ezadi, cho'ktiradi. Ayni paytda, uni g'alayonga keltiradi. U jimgina qo'l qovushtirib o'tira olmaydi va ko'pincha rubobiy she'rlar o'rniga ijtimoiy-axloqiy mavzularga qo'l uradi, so'zni qurolga aylantirib jamiyatdagi illatlarga qarshi kurashadi. Shuning uchun ham shoir "yaproqday sarg'aydim buyuk urushda", deb yoza-di. Ayni paytda, yonimda "musulmon yo'q edi, yo'q edi millat" deya cho'ng iztirobga beriladi. Xo'sh, buni qandoq qabul qilish va talqin etish mumkin?..

Gap shundaki, ozmi-ko'pmi tafakkur qilib, dunyo va insonning chin mohiyatini anglamoqqa uringan kishi borki, alaloqibatda tushunib yetadiki, olam yaratilgandan buyon unda bitta buyuk urush ketyapti – Nafs mahorabasi! Shoir ham shuni nazarda tutib, “har nafas musulmon millatim dedim, nafsiga kuyganlar keldi oqibat” deb yozadi. So'ngsiz davom etayotgan urushning shafqatsizliklariga tahammul etolmagan chog'larida esa alam bilan “musulmon yo'q edi, yo'q edi millat” deb ham yuboradi. Chunki u goh-goh o'zini ana shu buyuk urushda yolg'iz his etadi, chorasiz va abgor qolib eziladi.

Ammo shoir ikki o't orasida, chunki uni haqiqiy she'r ilhomi qistovga oladi, rubobiy she'rlar yozishga undaydi.

*Rubobiy sabolar ruhimdan esing
qaytadan uyg'onsin ilohiy tug'yon...*

Biroq, ne ko'z bilan ko'rsinki, shoirning rubobiy she'rlarga esh bo'lib shivirlovchi, hatto uni yaproqlari dunyoga qolmabdi: ular buyuk urushda boy berilibdi, yaproqlar keltirishda doyalik qiluvchi o'rnida endi faqat ulug' janglargaagina yarovchi qilichday keskir shoxlar qolibdi:

*Voh, yalang shoxlarim qilichday keskir
bir yaproq qolmaptir shivirlayturg'on.*

Shavkat Rahmon qanday shoir bo'lmoqchi edi-yu, haqiqatda u qanday shoir bo'lib yetishdi?!

Azaldan har bir xalqda, har bir millatda shunday bo'lgan. Erksevar, adolatparvar shoirlar mil-

latning jangchisiga aylangan, shu bois, bu jangchi shoirlar ruhiyatida, fe'lida, ijodida, obrazlar tizimida, uslubida yaqinlik bor. Buni qiyosiy tahlil orqali ko'rib chiqamiz. “Lotin Amerikasi vijdoni” nomini olgan Pablo Neruda (asl ismi Neftale Rikardo Reys Basualti)ga Rahmon: “Shoirning yo'li bu – dunyoning yo'li” deb bag'ishlangan she'rida Shavkat Nerudani tinchlik kurashchisi nomi bilan ham ataydilar. Pablo demokratiya uchun kurashgan shoir bo'lib, 1973-yil betob yotgan shoirning uyi 23-sentabrda fashistlar tomonidan suvga cho'ktiriladi va shoir halok bo'ladi. Shu bois, Shavkat Rahmon “Tinchlik kurashchisi”ga atalgan she'rida:

*Shoirni o'ldirmak –
Jinoyat,*

Gunoh,

deb yozadi.

Shavkat Rahmon hassos shoir. U shunchaki yozmagan. Faqatgina tuyg'ularini to'lqinlantirgan, qalbini junbushga keltirgan voqealargaagina munosabat bildirgan. Bu o'rinda ham Pablo Neruda tuyg'ulari yaqin. Ikki shoir ham jangchi, ikki shoirda ham isyonkor bilan uning ruh, uyg'otish tamoyili ustuvor. Demakki, ikki shoirda ham ruh yaqin, o'z-o'zidan ohanglar yaqin.

*Hech narsa yo'q edi tayanay desam:
Yo'q edi sehrli buloq suviday
oqquvchi suyuq bir balchiq qo'limda,
yo'q edi toshko'mir yo billur kabi,
taft olib, kaftimga taftin berguchi.
Ishonchli birorta zarang zamin ham*

deb yozgan bo'lsa Pablo Neruda, endi shu ohang, shu ruh, shu kayfiyat Shavkat Rahmonda quyidagicha ifodalanadi:

*Haromni xush ko'rgan maslakfurushlar
zig'irday himmatin qilganda minnat,
yaproqday sarg'ardim buyuk urushda
musulmon yo'q edi,
yo'q edi millat.*

Har ikkala shoirda ham tuyg'ular bir xil – ezgulik yo'lida kuzatiluvchi yolg'izlik. Bu holat o'z-o'zidan bir xil ohangni keltirib chiqaradi, nazdimda. Pablo Neruda millatni uyg'otishni istab, uyg'onishga ukalarni – yoshlar, bolalarni chorlaydi. Zero, Vatanning umidi doim yosh avloddan, bolalardan:

*Tur ukam, men bilan tug'ilmoq uchun:
Qo'l cho'z menga, iztiroblaring
olovlangan mintaqalardan,
Sen qaytib kelmassan palaxsa toshdan.*

Aynan shu jangchiga xos chaqiriq, uyg'otish tamoyili Shavkat Rahmon lirikasida quyidagicha o'z ifodasini topadi:

*Bormi er yigitlar, bormi er qizlar,
bormi gul bag'ringda jo'mard nolalar,
bormi bul tuproqda o'zligin izlab,
osmon-u falakka yetgan bolalar?..*

Pablo Neruda: “Menga kurash bering, temir va vulqon” deb yozsa, Shavkat Rahmon esa:

*Bor bo'lsa,
alarga yetkazib qo'ying,
bir boshga bir o'lim demagan ermas,
shahidlar o'lmaydi,
bir qarab to'ying,
Yovga ters qaragan musulmon emas,*

deb yozadi. Bu holat – kurash har ikki jangchiga xos bo'lgan muqaddas a'mol. Chunki ular shoir. Shoirning zulmatga tik boqmaslikka, shoir bo'lmaslikka haqqi yo'q.

*Shoirman –
Boraman zulmatga tikka.
Sira ham haqqim yo'q bukun dunyoda
Shoir bo'lmaslikka,
Yashamaslikka.*

Yashash maslagi o'xshash bo'lgan ijodkorlarda obrazlar tizimi ham o'xshash.

Pablo Neruda:
*Ur toshga to'qinar to'lqin zarbasi,
Olamlar yorishar – porlar atirgul –
Ko'kimtir sho'r tomchi va g'o'r uzumga
Do'nadi dengizning dunyoqarashi.*

Shavkat Rahmon:
*Atirgulim, jonim atirgul,
qarashlaring toza, sarishta.
Tongning oppoq ko'ksiga seni
qadab qo'ydi qaysi farishta?!*

Ikki ijodkorda atirgul – tong bilan bog'langan holda she'rga kiritilgan. Shavkat Rahmon bir yumalab tulkiga, bir yumalab odamga do'ngan kishilar haqida yozsa, Pablo Neruda ovozi toshga do'nganlar haqida yozadi:

*Qaytmassan yerosti asrlaridan
Sening toshga do'ngan ovozing qaytmas.*

Har ikkala ijodkorda ham bir-biriga yaqin topilmalar, bir-biriga yaqin obrazlar: o'sha atirgul, o'sha dengiz, o'sha ovozi, qalbi toshga do'ngan odamlar. Bu kabi o'xshashlik holatlarini Yevgeniy Yevtushenko va Shavkat Rahmon lirikasida ham kuzatish mumkin:

*Sen sevgidan ulkansan,
Jasursan.
Men esa cho'chiyman har qadamimdan.
Senga yomonlikni ravo ko'rmasman
Biroq, yaxshilik ham qilishim gumon.*

Yevgeniy Yevtushenko lirik qahramoni o'z o'ziga talabchan, o'zidan norozi. Go'yo, uning nazdida, unga bahodirlik yetishmayotgandek. Aynan shu holat Shavkat Rahmon lirik qahramonida ham uchraydi.

*Men hamon go'dakman,
Tashlab ket meni,
Endi na yonaman va na o'saman...
Haqsizlik oldida turaman to'nib
Tishni tishga qo'yib
Mushtim qisaman.*

*U mendan kuchliroq,
U mendan dadil
Men oddiy yigitman u-chi, bahodir.
Juda ham qo'rqmas u, juda ham odil
ablalhar yuziga tuflashga qodir.*

Bu ijodkorlarda ham maqsad haqiqat uchun kurashmoq, odamlarni g'aflat uyqusidan uyg'otmoq. Bu Yevgeniy Yevtushenkoning quyidagi misralarida yanada ayon bo'ladi:

*Men hamyonman,
Yotibman yo'lda,
Kun yarmida yotibman yolg'iz,
Ey odamlar,
Payqash o'rniga
Toptamoqda oyoqlaringiz.
Nima bo'lgan sizlarga axir,
Ko'zlaringiz ko'rmi yo?!*

Ko'zni ochish haqidagi chaqiriq Shavkat Rahmonda quyidagicha yangraydi:

*Ko'zingizni oching, qo'rqmang,
Ziyodan qamashsin, og'risin mayli.
Mayliga, yashamak bo'lsin qiyinroq,
Ochiqligi tufayli.*

Ikki shoir o'rtasidagi ruhiy holat yaqin. Shu bois, Shavkat Rahmonga Yevgeniy Yevtushenko ko'ngil kechinmalari begona emas. Shavkat Rahmon shoir ruhiyatidagi ana shu holni payqab, unga atalgan she'rida shunday deydi:

*Uxlolmaysiz sokin, bermalol,
Qarolmaysiz olamga g'amsiz.
Orom bermas baribir xayol:
Katta yerda katta odamsiz.*

Shavkat Rahmon lirikasidagi ana shunday ruhiy yaqinlik tatar adabiyotining jangchi shoiri Musa Jalil bilan ham kuzatiladi. Musa Jalil chin ma'noda jangchi shoir bo'lib, jangchiga xos tarzda yozgan va jangchiga xos tarzda halok bo'lgan. Musa Jalil "Ishonma" she'rida shunday yozadi:

*Yurtdan ketdim yurtni, seni deb,
Men kurashdim qonli har damda.
Yurtni, seni qo'limdan bersam
Nima qolar menga olamda?!*

"Nima qolar menga olamda" degan savol Shavkat Rahmon lirikasida ham yangraydi.

*Mendan nima qolur –
Abadiy nurlar,
Barq urib yashagan dunyo tomonda:
Urinib - surinib sira to'ymagan,
Bir ko'ngil qoladi,
Qolsa ham mendan.*

Yoxud Musa Jalil "Do'stimga" deb nomlangan yana bir she'rida quyidagicha yozadi:

*Yo'q qayg'urma, do'stim, umrimiz,
Xalq umrining kichik gullari.*

*Biz so'nsak ham bizning uchqundan
Ortib borar uning nurlari.*

Shavkat Shoir do'stiga murojaat qilib, ularning ezgu maqsadlari, ezgu istaklari aslo so'nmasligini, zero, ularning davomchilari borligini ta'kidlaydi. Rahmonda ham o'z do'stiga, birodariga murojaat tarzida yangrovchi, xuddi yuqoridagi kabi g'oyani ifodalovchi misralar bor:

*Birodar, yashayber, yig'lab va kulib,
Chayir bilagingda oqar quvvating.
Qayta turolmasang bir kun yiqilib,
Achinma, boshqaga qolar niyating.*

Musa Jalilda ham, Shavkat Rahmonda ham haqiqiy jangchiga xos bo'lgan uyg'otuvchi ruhiyat ustuvor. Har ikki shoir ham o'z tanlagan yo'li to'g'ri ekanligiga, bu yo'ldan chekinmoq mumkin emasligiga va g'olib bo'lish nihoyatda zarur ekanligiga qattiq ishonishadi. Ular shu bois, albatta, g'alaba qozonishadi. Shavkat Rahmon ta'kidlaganidek, boshqacha bo'lishi mumkin emas:

*Yashayber, qalbingga ishonib mag'rur,
Yashayber, bo'lsang ham oromdan yiroq.
G'olib chiqmoqliging juda ham zarur,
Boshqacha bo'lishi mumkinmas, biroq.*

Kuchli shaxsiyat – kuchli ijodni dunyoga keltiradi. Shavkat Rahmon ana shunday kuchli ijod sohibi. Uning eng avvalo, o'ziga, yuragiga ovoz sifatida yetib bo'lgan chaqirig'i avlodlar qalbiga uyg'o-

tuvchi boradi. Zero, uning hayoti isyondan iborat edi. Shu isyon uning she'riyatiga ham ko'chgan edi. Bu haqda Xursandbek To'liboyev shunday yozadi: "Shoir she'rlarida bitta ruh, kayfiyat bor, bu – isyon edi. Isyonkor ruhdagi she'rlarini tahlil qiladigan bo'lsak, undagi ma'no tovlanishlari, ranginlik, goh sokin oqayotgan daryoni esga soladi, goh shiddat bilan qirg'oqqa otilib chiqay deb turgan dengiz ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Bu kayfiyat shoirning tabiat hodisalariga shunchaki befarq qaramay, uni tirik jon kabi qiynalishlarini his etishida ham qabarib ko'rinadi"¹. Chindan-da, Shavkat Rahmon Tangri taolo unga in'om etgan iste'dodini so'z vositasida, she'riy asarlarida go'zal ifoda etadi:

*Xayr, Bahor! Alvido, Bahor!
Rahmat oshiq gullaring uchun.
Shoxlarimga zumrad g'o'ralar
Qadab qo'ygan gullaring uchun.*

*Xayr, Bahor! Alvido, Bahor!
Ushalmasdan qoldi armonim.
Biroq, kutgil, dedi-yu, Bahor
Lablarimga bosdi barmog'in.*

"Chinakam shoirdan yana bundan ortiq nima kutish mumkin? O'ta og'ir sharoitda ijod qilgan shoirning "Bahor"ga aytilgan vidosi – millat ozodligi uchun qaratilgan qalb nidolari emasmi? Shoir tabiatning eng ulug' ne'mati – yashillik va go'zallik haqidagi yuksak ideallarining faylasufona tash-

¹ Uyg'oq vijdon kuychisi. Xursandbek To'liboyev Otajon Norov bilan suhbat.

behlari emasmi? She'rning intihosiga teran nigoh solsangiz, qaysidir faylasuf adibning iborasi esga tushadi: "Tiriksan hali o'lmagansan, umid bilan yashash kerak", degan. Shoirning lirik qahramoniga ham "Bahor" umid va taskin beradi"¹. Shavkat Rahmon ovozi – so'nmaydigan ovoz. U minglab dillarni g'aflat uyqusidan uyg'otishga qodir. Zero, shoirning maqsadi ham aslida shu. Dunyoning dard-u g'amini chekish shoirning zimmasida. Chunki u shunaqa – olamning bir parchasi bo'lib tug'ilgan, o'zini mudom shunday his etadi. Ulug'bek Hamdam ta'kidlaganidek, "Shoirlik ham qismat, ham vijdon amridir. Shavkat Rahmonning o'z-o'zini ifoda qilish va yashash usulidir"². Shoirning shu yashash tarzi hamon uyg'otuvchi tamoyil bo'lib qolmoqda, ham dillarda, ham tillarda jaranglamogda.

Shavkat Rahmon ijodi o'zbek zamonaviy poeziyasida xalqning ma'naviy uyg'onishi, tarixiy xotirasini tiriltirish, ruhiy hushyorlikni shakllantirish kabi jarayonlarning adabiy ifodasiga aylangan hodisadir. Uning she'riyati nafaqat badiiy-estetik kashfiyotlar, balki jamiyatning ichki ruhiy harakatini uyg'otuvchi kuch, bir davrning so'z bilan ifodalangan uyg'onish jarayoni sifatida qadrlanadi. Shoirning ko'plab she'rlarida chuqur ijtimoiy ma'no yashiringan, ochiqcha aytilmaydigan, lekin o'quvchini mulohazaga, o'z-o'zi bilan suhbatga, qalbidagi uyqu bosgan qatlamga qarshi kurashga undaydigan ruhiy ta'sir mavjud. Aynan mana shu

¹ Uyg'oq vijdon kuychisi. Xursandbek To'liboyev Otajon Norov bilan suhbat.

² Ulug'bek Hamdam. Shoir-tuzalmas haqiqatparast.// Badiiy tafakkur tadriji kitobidan. Toshkent: Yangi asr avlodi.

jihat adabiyotshunoslikda Shavkat Rahmon poetikasining yetakchi tamoyili sifatida e'tirof etiladigan "uyg'otish tamoyili"ning mohiyatini belgilaydi. Ijodkor o'z she'rlarida xalqning tarixiy o'zligini esga soladi, unut bo'layotgan qadriyatlarni qayta tiklaydi, milliy ruhning ildizlariga qaytishni targ'ib qiladi. Bu jarayon shoir tomonidan bevosita targ'ibot tarzida emas, balki ramzlar, poetik ishoralar, falsafiy mushohadalar orqali amalga oshiriladi. U tarixiy shaxslar yoki voqealarni to'g'ridan to'g'ri madh etmaydi, balki ularni uyg'onish uchun zarur ichki impulsgacha aylantiradi. Shoir she'rlaridagi tarixiy obrazlar ma'naviy hushyorlikni kuchaytiruvchi poetik belgi vazifasini bajaradi. Masalan, Jaloliddin Manguberdi, Bobur, Amir Temur kabi ulug' siymolar haqida to'g'ridan-to'g'ri yozmasada, ularning ruhini eslatuvchi motivlar, Turkistonning azaliy qiyofasi, yurtning ko'hna ruhi timsollari orqali xalqning o'zligini tanishiga xizmat qiladi. Tarixni eslatish – Shavkat Rahmon talqinida shunchaki ma'lumot berish emas, balki ruhiy uyg'onishning boshlanishidir.

Shoirning uyg'otish tamoyili ko'pincha keskin metaforalar, qarama-qarshi obrazlar, dramatik ohang, ichki hayqiriqqa o'xshash poetik urg'ular orqali namoyon bo'ladi. U "uyqu" obrazini jamiyatning ijtimoiy befarqligi, ruhiy holdan toyishi, o'zligini unutish bilan bog'laydi. "Ko'zlarni och", "qayt", "uyg'on", "tur" kabi chaqiruvlar shoir poetikasida markaziy rol o'ynaydi. Bu chaqiriqlar siyosiy shior emas, balki shaxsiy vijdonni uyg'otish, insonning o'zini anglashiga yo'naltirilgan ruhiy murojaatdir. Shoirning ko'plab she'rlarida jimlikni yorib o'tadi-

gan ichki hayqiriq seziladi; u jamiyatdagi adolatsizlikni, beqarorlikni, ma'naviy inqirozni ko'rib turib, sukut saqlay olmaydi. Uning she'rlari shu bois ijtimoiy xavfsizlik vositasi emas, balki ijtimoiy uyg'onishning badiiy quroliga aylanadi.

Shavkat Rahmonning uyg'otish tamoyilidagi asosiy jihatlardan biri – xalqning milliy g'ururini tiklashga qaratilgan poetik izlanishlaridir. Shoir turkiy ruh, el-yurtning mag'rurligi, ajdodlar ruhi, xalqning dastlabki pok va qudratli qiyofasini ramzlar vositasida qayta yaratadi. Uning she'riyatida tog'lar – matonatning belgisi, shamol – erkinlikning nafasi, qushlar – ozodlik ruhining timsoli, suv – poklanishning manbai sifatida talqin qilinaadi. Bu obrazlar milliy ongning chuqur qatlamlariga singganligi bois o'quvchini ich-ichidan larzaga soladi, ruhiy uyg'onish jarayoniga tortadi. Shoirning uyg'otish tamoyili ko'p qavatli ma'nolar tizimi orqali ishlaydi. Masalan, "bahor" motivi shoirda tabiatning fasli emas, balki xalqning uyg'onish pallasini, ozodlikning boshlanishi sifatida namoyon bo'ladi. "Qorong'ulik" esa siyosiy zulmat, ruhiy tushkunlik va tarixiy bosqinchilik timsolidir. "Tush" – uyqudagi ongning, mustamlaka yillarida bosilgan milliy ruhning ramzidir. Shavkat Rahmon uchun she'r – bu orzularni emas, balki uyg'onish jarayonini ifodalovchi maydon. Shoirning poetik tasvirida o'quvchi tasavvur qilishi, fikrlashi, izoh berishi kerak bo'lgan ma'no qatlamlari mavjud bo'lib, aynan shu izlanish jarayoni o'quvchini passiv holatdan faol ruhiy holatga o'tkazadi.

Uyg'otish tamoyilining yana bir muhim jihati shundaki, Shavkat Rahmon shaxsiy va umumin-

soniy uygʻonish oʻrtasida uzviy bogʻliqlik koʻradi. Shoirning nazarida, oʻzini anglamagan inson jamiyatni angalay olmaydi; oʻz qalbini uygʻotmagan kishi xalqni uygʻota olmaydi. Shu sabab, uning koʻplab sheʼrlarida shaxsning ichki dunyosi, vijdon azobi, maʼnaviy inqiroz bilan kurashish jarayoni alohida yoritiladi. Inson qalbini uygʻotish shoir uchun jamiyatni uygʻotishning poydevoridir. U shaxsning qoʻrqoqlik, befarqlik, loqaydlik, yolgʻon kabi illatlardan xalos boʻlishi, oʻzini anglash darajasiga koʻtarilishini estetik zarurat sifatida talqin qiladi. Shavkat Rahmon sheʼriyati musiqiyliigi bilan ham uygʻotish tamoyiliga xizmat qiladi. Sheʼrlarning ichki ritmi, qayta-qayta takrorlanadigan misralar, ohangdor satrlar oʻquvchi ruhiyatiga bevosita taʼsir qiladi. Ohang bu shoirning ichki ovozi boʻlib, u oʻquvchini toʻlqinlantiradi, hissiyotini uygʻotadi, ongida ruhiy harakat uygʻotadi. Shoirning musiqiy satrlari orqali yaratilgan ruhiy vibratsiya uygʻotish jarayonining hissiy mexanizmini shakllantiradi. Uning poetikasida uygʻotish tamoyili ijtimoiy jarayon sifatida ham, ruhiy-estetik hodisa sifatida ham talqin qilinadi. Sovet totalitar tizimi ostida shakllangan shoir oʻz sheʼrlari orqali jamiyatning ichki ohangini, boʻgʻilgan soʻzlarini, aytilmagan dardlarini ifoda etdi. Uning poetik hayqirigʻi ziddiyatli, ichdan kelgan, chuqur maʼnaviy iztirobga asoslangan boʻlib, bu iztirob uygʻonishning boshlanishi sifatida beriladi. Shoir sheʼrlarini oʻqigan kishi undagi soxtalikdan xoli ohangni, yashirin haqiqatni, oʻtkir ijtimoiy sezgirlikni darhol his qiladi. Bu sezgi oʻquvchini oʻylashga, xulosa chiqarishga, oʻzini anglashga undaydi – qayta uygʻonishga majbur qiladi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Shavkat Rahmon ijodi oʻzbek adabiyotida faqat estetik yan-gilik emas, balki maʼnaviy uygʻonishning badiiy tamoyiliga aylangan. Uning sheʼrlari oʻzbek xalqining erkinlikka boʻlgan intilishi, tarixiy oʻzini anglash jarayoni, jamiyatning ruhiy tiklanishida katta oʻrin egallaydi. Shoir yaratgan obrazlar tizimi, ramzlar olami, ichki hayqiriqlar, oʻtkir istiora va kinoyalar uygʻotish tamoyilining “badiiy dasturi”ni shakllantiradi. Bu tamoyil bugun ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan: shoirning satrlari hali ham oʻquvchini hushyorlikka, fikrlashga, tarixiy oʻzligini unutmaslikka, maʼnaviy tiklanishga undaydi.

Xulosa shuki, Shavkat Rahmon sheʼriyati uygʻotish tamoyilining eng yorqin, eng taʼsirchan namunalaridan biridir. Uning ijodi ruhiy uygʻonishning badiiy koʻrinishi, milliy oʻzlikni tiklashning adabiy dasturi, xalq ruhining qayta tirilish jarayonini ifodalovchi ulkan hodisadir. Shoir oʻz sheʼrlari bilan bir avlodning maʼnaviy uygʻonishiga turtki boʻlgan, milliy ongni sergaklikka chorlagan, ruhiy uygʻonishning poetik timsolini yaratgan ijodkor-dir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom hamda shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 78-b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 360-b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Sharq taronalari o'n uchinchi xalqaro musiqa festivalining ochilish marosimidagi nutqi. – Xalq so'zi, Toshkent, 2024-yil 27-avgust, 174-son.

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar

4. Adabiyot nazariyasi. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1978. – 415 b.

5. Adabiyot nazariyasi. 2-tom. – Toshkent: Fan, 1979. – 444 b.

6. Adabiy tur va janrlar. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1991. – 382 b.

7. Bobojev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2001. – 560-b.

8. Boltaboyev H. Nasr va uslub. – Toshkent: Fan, 1992. – 10-b.

9. Yoqubov I. Badiiy estetik so'z. – Toshkent: 2011. – 469-b.

10. Jo'raqulov U. Hududsiz jilva. – Toshkent: Fan, 2006.

11. Jo'raqulov U. Nazariy poetika masalalari: Muallif. Janr. Xronotop. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti NMIU, 2015.

12. Yo'ldosh S. Nutq va uslub. – Toshkent: Cho'lpon nashriyoti, 2002. – 127-b.

13. Yo'ldoshev Q. Yo'niq so'z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – 678-b.

14. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2018. – 346-b.

15. Karimov H. O'zbek romanlarining taraqqiyot tamoyillari: Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2008. – 124-b.

16. Mirvaliev S. O'zbek romani. – Toshkent: Fan, 1969.

17. Mirzaev I. O'zbek adabiyotida janrlar tipologiyasi va uslubiy rang-barangligi. – Toshkent: Fan, 1983.

18. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar: (Istiqlol, adabiyot va ma'naviyat). – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – 112-b.

19. Normatov U. Nasrimiz tamoyillari. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1978.

20. Nosirov O. Obrazlarda uslub jilolari. – Toshkent: Fan, 1991. – 196-b.

21. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – Toshkent: Sharq, 2007. – 336-b.

22. Rasulov A. Tanqid tahlil baholash. – Toshkent: Fan, 2006. – 232-b.

23. Sarimsokov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent, 2004.

24. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. 2-nashri. – Toshkent: O'qituvchi, 1986. – 40-b.

25. Qayumov A.A. Hozirgi o'zbek nasrida milliy xarakter va badiiy mahorat. – Fil. fan. b. dok. diss., Farg'ona, 2018. – 160-b.

26. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 408-b.

27. Quronov D. Cho'lpon nasri poetikasi. – Toshkent: Sharq, 2004.

28. Qo'shjonov M. O'zbek romanchiligining rivojlanish bosqichlari va janr xususiyatlari / Adabiy tur va janrlar. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1991. – 299–382-b.

29. To'rayev D. Davr va ijod mas'uliyati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004.
30. To'ychiyeva Sh. Ijodkor dunyo qarashi va badiiy uslub. – Toshkent: Akademiya nashriyoti, 2008. – 132-b.
31. Umurov H. Badiiy ijod asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2001.
32. Xudayberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Sharq, 2008. – 368-b.
33. Hamdamov U. Badiiy tafakkur tadriji. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002. – 200-b.
34. Sharafiddinov O. Hayot bilan hamnafas. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1983.
35. Fitrat A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2009. – 336-b.
36. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademiya nashr, 2018. – 480-b.
37. Mahmudov Y. Hikoya badiiyati: Luqmon Bo'rixon hikoyalari misolida. – Toshkent: Turon ziyoyi, 2017. – 64-b.
38. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – 264-b.
39. Adashboyev T. "Tog'larga termilgan xayol". "Shavkat Rahmonni xotiralab..." kitobida. – Toshkent: Sharq, 2012.
40. Adashboyev T. Charxpalakning tarixi. – Toshkent: Sharq yulduzi, 2000 yil, 5–6-son.
41. Antuan de Sent-Ekzyuperi. Kichkina shahzoda. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.
42. Vafo Fayzulla. Chaqmoq yorug'i. – Toshkent: Muharrir, 2012.
43. Ilhom Q. va boshqalar. Shavkat Rahmon olami. – Toshkent: Akademiya nashr, 2012.
44. Isomiddinov Sh. "Uch uchuv". "Shavkat Rahmonni xotiralab..." kitobida. – Toshkent: Sharq, 2012.

45. Karimov B. Shoirning o'tish so'zi. "Shavkat Rahmonni xotiralab..." kitobida. – Toshkent: Sharq, 2012.
46. Mahkamov A. Adabiyot ibodati. – Dushanbe: Irfon, 2008.
47. Mahkamov A. Imonim deganlar, Vatan deganlar. "Shavkat Rahmonni xotiralab..." kitobida. – Toshkent: Sharq, 2012.
48. Mirzayeva N. Istiqloлга intilgan shoir. – Tamaddun, 2011.
49. Musulmon N. Tumanlarni qo'porar tog'lar. – "Vatan" gazetasi, 1995 yil, 22-son.
50. Muhammad R. Shavkat Rahmonning anori. "Shavkat Rahmonni xotiralab..." kitobida. – Toshkent: Sharq, 2012.
51. Nabijon B. Jasorat so'zining tarjimonlari. – "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 1998.
52. Nodir J. Ulug' elning faryodi. "Shavkat Rahmonni xotiralab..." kitobida. – Toshkent: Sharq, 2012.
53. Normatov U. Tafakkur yog'dusi (Adabiy-tanqidiy esselar). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
54. Nurulloh M. She'riyat ko'rgan tomosha. "Shavkat Rahmonni xotiralab..." kitobida. – Toshkent: Sharq, 2012.
55. Rasulov A. Iste'dod va umumiy qod. – Toshkent: Sharq, 2000.
56. Raqimboyeva H. Shavkat Rahmon haqida xotiralar. – O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi, 1997 yil, 26-dekabr.
57. Rahmon Sh. Qalb tabiati (Shavkat Rahmon she'riyat manzaralari). – "O'zbekiston va san'at" gazetasi, 1996 yil, 29-mart.
58. Haqqulov I. Badiiy so'z shukuhi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.
59. Shavkat Rahmon. Abadiyat orqalab: She'rlar. – Toshkent: Movarounnahr, 1990.

60. Shavkat Rahmon. Gullash tosh: She'rlar. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1985.
61. Shavkat Rahmon. Maxfiya. Fitna san'ati 1-kitob. – Toshkent: Fan, 1993.
62. Shavkat Rahmon. Saylanma: She'rlar. – Toshkent: Sharq, 1997.
63. Shavkat Rahmon. Qulvo: She'rlar. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1987.
64. Sharafiddinov O. Ijodni ingliz baxti. / Ijod va shijoat. – Toshkent: Sharq, 2004.
65. XX asr jahon she'riyati. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2011.
66. Adashboyev T. Shavkat Rahmon she'riyatida milliy ruh. – Sharq, 2011.
67. Karimov B. Shavkat Rahmon she'riyatida tasviri vositalar. – Fan, 2010.
68. Mahkamov A. Shoirning ma'naviy dunyosi. – Irfon, 2009.
69. Xudoyberdiyev E. Shavkat Rahmon she'riyatida obrazlar tizimi. – Sharq, 2010.
70. Jo'raqulov U. Shavkat Rahmon she'riyatida lirika. – Fan, 2011.
71. Yo'ldoshev Q. Shoir she'rlari va badiiy talqin. – Yangi asr avlodi, 2012.
72. Rasulov A. Shavkat Rahmon ijodida badiiy uslub. – Sharq, 2013.
73. Hamdamov U. Shoirning ijtimoiy mavzudagi she'rlari. – Yangi asr avlodi, 2012.
74. Musulmon N. Shavkat Rahmon she'riyatida tabiat mavzusi. – "Vatan" gazetasi, 1996.
75. Antuan de Sent-Ekzyuperi. Shoirilar ijodiy o'ziga xosligi. – G'afur G'ulom nashriyoti, 1988.
76. Vafo Fayzulla. Shavkat Rahmon she'riyatiga nazar. – Muharrir, 2012.
77. Ilhom Q. She'riyat manzaralari. – Akadem-nashr, 2012.

78. Isomiddinov Sh. Shavkat Rahmon ijodida falsafiy g'oya. – Sharq, 2012.
79. Karimov B. Shoirning ma'naviy dunyosi. – Sharq, 2012.
80. Mahkamov A. Shavkat Rahmon she'rlari va badiiy talqin. – Irfon, 2008.
81. Nodir J. She'riy tahlil. – Sharq, 2012.
82. Musulmon N. Ijodiy qarashlar. – Vatan, 1996.
83. Nurulloh M. Shoir ijodida lirika. – Sharq, 2012.
84. Muhammad R. Shoir she'rlari. – Sharq, 2012.
85. Raqimboyeva H. Shavkat Rahmon: Tanqidiy tahlil. – O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1998.
86. Antuan de Sent-Ekzyuperi. Shoir va inson. – G'afur G'ulom nashriyoti, 1988.
87. Vafo Fayzulla. Shoir dunyosi. – Muharrir, 2012.
88. Ilhom Q. Shoir va zamon tafakkuri. – Akadem-nashr, 2013.
89. Isomiddinov Sh. Shoirning badiiy uslubi. – Sharq, 2012.
90. Karimov B. Shoirning obrazlari. – Sharq, 2011.
91. Mahkamov A. Shavkat Rahmon va milliy adabiyot. – Irfon, 2009.
92. Sharafiddinov O. Shoirning shaxsiyati. – Fan, 2010.
93. Nodir J. Shoir she'rlari tahlili. – Sharq, 2012.
94. Musulmon N. Ijodiy qarashlar. – Vatan, 1996.
95. Nurulloh M. Shoir ijodida lirika. – Sharq, 2012.
96. Muhammad R. Shoir she'rlari. – Sharq, 2012.
97. Raqimboyeva H. Shavkat Rahmon: Tanqidiy tahlil. – O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1998.
98. Antuan de Sent-Ekzyuperi. Shoir va inson. – G'afur G'ulom nashriyoti, 1988.
99. Vafo Fayzulla. Shoir dunyosi. – Muharrir, 2012.
100. Ilhom Q. Shoir va zamon tafakkuri. – Akadem-nashr, 2013.
101. Isomiddinov Sh. Shoirning badiiy uslubi. – Sharq, 2012.

102. Karimov B. Shoirning obrazlari. – Sharq, 2011.
103. Mahkamov A. Shavkat Rahmon va milliy adabiyot. – Irfon, 2009.
104. Sharafiddinov O. Shoirning shaxsiyati. – Fan, 2010.
105. Nodir J. Shoir she’rlari tahlili. – Sharq, 2012.
106. Musulmon N. Shoir ijodiy tafakkuri. – Vatan, 1995.
107. Nurulloh M. Shoir she’riyatida lirika va epika. – Sharq, 2012.
108. Muhammad R. Shavkat Rahmon ijodi va ma’naviyat. – Sharq, 2012.
109. Raqimboyeva H. Shoir va adabiy meros. – O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 1997.
110. Jo‘raqulov U. Shoir va falsafiy qarashlar. – Fan, 2011.
111. Yo‘ldoshev Q. Shoirning badiiy dunyosi. – Yangi asr avlodi, 2012.
112. Rasulov A. Shoir va zamon talablari. – Sharq, 2006.
113. Hamdamov U. Shoir ijodida milliy ruhiyat. – Yangi asr avlodi, 2011.
114. Musulmon N. Shoir va tabiat tasviri. – Vatan, 1996.
115. Antuan de Sent-Ekzyuperi. Shoirlarning ma’naviyati. – G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1988.

MUNDARIJA**Kirish**..... 3**I BOB**Shavkat Rahmon lirikasida ijtimoiylikning ramziy
ifodalanishi 5**II BOB**

Shavkat Rahmon lirikasida milliy ruh..... 39

III BOBShavkat Rahmon she'riyatidagi
"Uyg'otish" tamoyili 68**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati** 86

Adabiy-badiiy nashr

GULRUX XUDOYOROVA

SHAVKAT RAHMON LIRIKASIDA IJTIMOIY OHANGLAR

Monografiya

Muharrir *Mahmuda Abdullayeva*
Badiiy muharrir *Akbarali Mamasoliyev*
Texnik muharrir *Rustam Isoqulov*
Musahhih *Ozoda Ahmedova*
Sahifalovchi *Sarvar Eshpo'latov*



“SAHHOF” nashriyoti
100129, Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30
☎: +99899 111-94-62
✉: +99894 659-94-62



8527

Bosishga 2025-yil 19-dekabrda ruxsat etildi.
Bichimi 84x108 $\frac{1}{32}$, Ofset bosma. «Cambria» garniturasida.
Shartli bosma tabog'i 6. Adadi 20 dona.

“AZMIR NASHR PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
100200, Toshkent shahri, Adham Rahmat ko'chasi, 10-uy.